

# O'ZBEKISTON QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI

ISSN 2181-502X

№1, 2024

Agrar-iqtisodiy, ilmiy-ommabop jurnal



**2024-yil — Yoshlar  
va biznesni qo'llab-  
quvvatlash yili**

**Yangi yil barchamizga  
muborak bo'lsin,  
aziz yurtdoshlar!**

# **Sirdaryo-Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi qoshidagi Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi jamoasi**

**Mamlakatimiz suvchilari  
va barcha yurtdoshlarimizni**

**Yangi - 2024-yil  
bilan muborakbod etadi.**

**Yangi yil har bir xonadonga  
baxt va shodlik olib  
kelsin!**



# O'ZBEKISTON XALQIGA YANGI YIL TABRIGI

## Aziz vatandoshlar!

Jonajon diyorimizga yangi – 2024-yil kirib kelmoqda.

Mana shu shukuhli damlarda duogo'y otaxon va onaxonlarimizni, mehribon opa-singilalarimizni, barcha soha va tarmoqlar vakillarini, azmu shijoatli yoshlарimizni, chet ellardagi qadrlи vatandoshlarimizni – ko'pmillatli butun xalqimizni ushbu qutlug' ayyom bilan chin qalbimdan samimiy tabrikayman.

## Muhtaram do'star!

Albatta, hayot bor ekan, uning yutuq va quvonchlari, tashvish va muammolari ham bo'lishi tabiiyidir. Ammo inson va xalq aql-zakovati, halol mehnati, mustahkam irodasi bilan har qanday sinovlardan munosib o'tishga qodir.

Shu ma'noda, 2023-yil el-yurtimiz uchun qut-barakali va omadli keldi. Eng muhim, yurtimizda tinchlik-osoyishtalik, turli millat vakillari o'rtasida do'stlik va hamjihatlik hukm surmoqda.

Tariximizda birinchi marta umumxalq referendumi asosida yangilangan Konstitutsiyamizni qabul qildik. Kelgusi taraqqiyotimizni belgilab beradigan "O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirishni boshladik.

Ko'plab nufuzli anjumanlarni yuqori saviyada o'tkazdik.

Xalqaro maydonda muhim tashabbuslarni ilgari surdik.

Barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishga erishdik.

Respublikamizda yuqori texnologik zamnaviy sanoat korxonalari, logistika va infratuzilma tarmoqlari, bog'cha va maktablar, madaniyat va sport ob'ektlari barpo etildi. Yangi-yangi ish o'rnlari ochilmoqda. Shahar va qishloqlarimiz obod bo'lib, aholi hayot darajasi yuksalib bormoqda.

Birgalikdagi mehnatimiz tufayli Yangi O'zbekiston orzusi real haqiqatga aylanmoqda. Barcha erishgan yutuqlarimiz uchun siz,

aziz vatandoshlarimiga chin dildan minnatdorlik bildiraman.

## Muhtaram do'star!

Inson qadrini ulug'lash, aholimiz manfaatlari ta'minlash, buning uchun kuchli iqtisodiyot barpo etish bizning asosiy vazifamizdir. Shu maqsadda 2024 yilni mamlakatimizda "Yoshlар va biznesni qo'llab-quvvatlash yili", deb e'lon qildik.

Yangi yilda iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalg etish, tadbirdorlik va xususiy mulk uchun keng imkoniyatlar yaratishni yanada kuchaytiramiz. Ilm-fan, innovatsiya, IT kabi sohalarni, "yashil" va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratamiz.

Yangi ish o'rnlari tashkil etish, aholi daromadlarini oshirish e'tiborimiz markazida bo'ladi. Ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdori ko'paytiriladi. Xotin-qizlar va nuroniylarni, yordamga muhtoj insonlarni qo'llab-quvvatlashga alohida ahamiyat beramiz. Ijtimoiy sohalar rivojini mutlaqo yangi bosqichga ko'taramiz.

Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, Qurolli Kuchlarimiz jangovar salohiyatini oshirish ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi.

Muxtasar aytganda, yangi hayotni, Yangi O'zbekistonni barpo etish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni to'liq safarbar etamiz.

## Qadrli va muhtaram vatandoshlarim!

Sizlarni Yangi yil bayrami bilan yana bir bor qutlab, barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, xonadolnaringizga tinchlik va fayzu baraka tilayman.

Har bir oila, har bir mahalla, butun yurtimiz farovon bo'lsin!

Go'zal Vatanimizni Yaratganning o'zi panohida asrasin!

Yangi yil barchamizga muborak bo'lsin!

**Shavkat MIRZIYOYEV,**  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.

# G'ØZA BILAN TILLASHGAN OLIM



**Mamlakatimiz paxta yetishtiruvchi eng shimoliy hudud bo'lishiga qaramasdan bu boradagi ilmiy tadqiqotlar ko'laming kengligi va erishlayotgan ijobjiy natijalar bilan jahon hamjamiyatida alohida e'tirof etiladi. Sababi yurtimiz olimlari qo'liga kiritayotgan yutuqlar xalqaro paxtachilik ilmi maydonida hamisha zalvarli bo'lib kelgan.**

**O'tgan asrning ikkinchi yarmida S.Mirahmedov, Sh.Ibragimov, A.Abdulkarimov, J.Musayev, S.Rahmonqulov kabi ko'plab zabardast olimlarimiz mamlakatimiz paxtachiligini bir qadar yuksakka ko'tarishga erishdilar. O'zbekiston mustaqillikka erishgach ular safiga bir navqiron avlod shiddat bilan kirib keldiki bugun ularning o'zi ham ustoz maqomidagi yetuk olimlardir. Masalan, genetika yo'nalishida I.Abdurahmonov jahon miqyosida mutlaqo yangi yo'nalishda izlanishlar olib borib o'ziga xos maktab yaratdi va dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan uning erishgan yutuqlari yuqori baholandi.**

**An'anaviy genetika va seleksiya usulublari asosida tadqiqotlar olib borgan yana bir olim Shodmon Nomozov esa, ko'p yillik ilmiy izlanishlari samarasi o'laroq paxtaning 30 dan ortiq yangi navlarini yaratishga erishdi. Mubolag'a bolsa ham oldindan aytilib qo'yishimiz mumkin bugun uning o'ziga xos ilmiy maktabi bor.**

Yaqinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zolarini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoniga ko'rta, bir qator fan fidoyilar bilan birga Paxta seleksiysi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutiining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinnbosari Shodmon Nomozov O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi etib tasdiqlandi.

Shu munosabat bilan unga qo'ng'iroq qilar ekanman, telefonda qahramonimizning mayin va yoqimli ovozini eshitdim. Rostini aytadigan bo'lsam, jurnalist sifatida u-bu masala yuzasidan ayrim katta-kichik olimlar, rahbarlarga qo'ng'iroq qilganimda barchalari ham ko'ngildagidek javob bermagan hollar ko'p bo'lgan. Boshqalardan farqli o'laroq, Shodmon Ergashovich bunday qilmadi. Aksincha kamtarlik bilan qanday ma'lumotlar qaysi muddatda kerak bo'lishligini so'rab, o'ta xushmuomalalik bilan savollarimga javob berdi.

Bir necha suhbatlarimiz asnosida shunday xulosaga keldimki, u ham aqlan, ham qalban yetuk inson ekan. Olimning mayin tabassumli chehrasi, xushmuomalasi, hijolatomuz gapirishlari uning nihoyatda samimiyatidan, xokisorligidan, kamtarligidan dalolat berib turardi.

Men hayotimda nihoyatda yetuk allomalarning ko'plari bilan hamsuhbat bo'lganman va shunday xulosaga kelganmanki, ularning aksariyati fanda qanchalar yuksakklikka erishgan bo'lsa, hayotda shu qadar kamtarin va kamsuqum insonlar edi. Shodmon Ergashovich mening nazarimda ana shunday olimlar sarasidan ekan.

Shu o'rinda uning ilmiy yo'liga qisqacha nazar tashlab o'tamiz. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanidagi olis qishloqda, oddiy o'qituvchi oilasida tug'ilib voyaga yetgan qahramonimiz 1991 yilda Toshkent qishloq xo'jaligi institutini tamomlagan. Ma'lumoti bo'yicha mutaxassisligi — olim-agronom, seleksioner, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi (1997), katta ilmiy xodim (2003), qishloq xo'jaligi fanlari doktori (2014), professor (2016), 1991-1994 yillarda O'zbekiston g'øza seleksiysi va urug'chiligi ilmiy-tadqiqot instituti (O'zG'SUITI) aspiranti, turli yillarda institutda kichik ilmiy xodim, ilmiy xodim, "G'øza genetikasi va sitologiyasi" laboratoriysi mudiri, direktorning ilmiy ishlar bo'yicha o'rinnbosari, direktor lavozimlarida ishlagan. 2021 yildan hozirgi vaqtgacha Paxta seleksiysi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti direktorning ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha o'rinnbosari.



Bir vaqtning o'zida u 3 ta xalqaro, 4 ta fundamental, 5 ta amaliy va 3 ta innovasion loyihalarga rahbarlik qilgan.

Bu davrda Sh.Nomozov turli-tuman mansab va lavozimlarda ham samarali mehnat qildi. Lekin daladan, g'o'zadan zinhor uzoqlashib ketmadi. Hamisha ilmiy tadqiqotlari bardavom bo'ldi. Natijada ko'plab yangi navlar yaratildi, ilmiy maqolalar va monografiyalar yozildi, iqtidorli shogirdlar tarbiyalandi.

Sh.Nomozovning muallifligi va hammuallifligi-da boshqa g'o'za navlariga nisbatan 5-7 kunga tezpishtir, 8-10 s/ga hosildor, tola chiqimi 4-5 foiz va tola sifati ko'rsatkichlari yuqori, viltga bardoshli 30 dan ortiq yangi navlar yaratilgan. Olim tomonidan jami 23 ta, shundan 2 ta xorijiy patentlar olingan. Rayonlashgan "Sulton" navi har yili mamlakatimiz umumiy paxta maydonining 20 foizga yaqinida ekinilib, oxirgi 5 yildagi ekin maydoni qariyb bir million getktarni tashkil etadi. "Sulton" navining eklishidan so'nggi besh yilda 250 mlrd. so'mlilik, 2019-2023 yillardagi 2530 tonna urug'lik chigitlari eksportidan esa, 3 mln. 352 ming dollarlik iqtisodiy samaradorlikka erishilgan.

Olim xalqaro ilmiy jamoatchiligi bilan ham yaqin hamkorlikda izlanishlar olib boradi. U AQSH, Xitoy, Gresiya, Pokiston kabi paxtachilik rivojlangan mamlakatlardagi hamkasblari bilan doimiy aloqada. Demoqchimizki, uning ilmiy tadqiqotlar natijasida erishayotgan yutuqlari xalqaro maydonda ham ma'lum va mashhur hamkasblarining yuqori baholariga sazovor bo'lib kelmoqda.

Sh.Nomozovning ko'p yillik fidokorona mehnatlari davlatimiz rahbariyati e'tiboridan chetda qolmadi, u "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan qishloq xo'jaligi xodimi" unvoni sohibidir.

Olimning yana bir jihatiga e'tibor qaratsak, u niyoyatda shogirdparvar inson. Shu kungacha to'rt nafar fan doktori, o'n besh nafar fan nomzodi va falsafa doktorlari uning rahbarligida ilmiy ishlarini muvaffaqiyatlilimoya qilishgan. Bugungi kunda olti nafar yoshlarga ilmiy rahbarlik qilmoqda. Shuningdek, u o'nlab magistrlarning ham ustozni hisoblanadi.

Ilmiy izlanishlari samarasi natijasida olimning g'o'za genetikasi, biokimyosi, fitopatologiyasi, seleksiyasi va urug'chiligi yo'nalishlarida mamlakatimiz va xorijiy nufuzli nashrlarda 482 ta, jumladan, 108 ta ilmiy maqola chop etilgan. U 23 ta patent va mualliflik guvohnomalari

sohibi, 5 ta respublikada chop etilgan hamda 1 ta xorijiy hamkorlar bilan hammualliflikdagi monografiyalarning O'zbekistonga tegishli boblari muallifidir.

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida Sh.Nomozovning safdoshlari va shogirdlari bilan suhabatlashar ekanman, ularning barchasi olimning kamtarligi, yuqori madaniyatligi, fidoyi va mehnatsevarligi haqida so'z yuritishdi. Qahramonimizning o'z tanlagan kasbiga sodiqligi, intiluvchanligi, qiyinchiliklardan qochmasligini alohida qayd etishdi.



— Menga bildirilgan ishonch uchun davlatimiz rahbariyati, avvalambor Prezidentimizga o'zimning samimiy minnatdorchiligini bildiraman. Bundan buyon ham bor kuchg'ayratimni, bilimimni jonajon Vatanimiz ravnaqiga baxshida qilaman, — deydi Sh.Nomozov. — Akademiklik unvoni yuksak sharaf, albatta. Shu bilan birga uning niyoyatda katta mas'uliysi ham bor. Biz mamlakatimiz fan namoyondalari oldida, qolaversa xalqimiz oldida hisobdor bo'lismiz va bu hisobotimiz yuki ham salmoqli bo'lishi kerak. Akademiklik, nazarimda, ilm-fan ravnaqi yo'lida o'ta g'ayratli, iqtidorli yoshlarni ilmiy faoliyat bilan samarali shug'ullanishida beminnat ko'makdosh, O'zbekiston ilm-fani nufuzini oshirishda esa yalovbardor bo'lish demakdir. Fursatdan foydalanim jurnal o'quvchilarini, butun xalqimizni kirib kelgan Yangi – 2024-yil bilan muborabod etaman.

Shodmon Ergashovich ilm-fan bilan mashg'ul bo'lgan holda xavas qilsa arzigulik, ibratli oilaning boshlig'i, ikki o'g'il va bir qizning mehribon otasidir. Uning farzandlari ham ilm-fanga intiluvchan bo'lib tarbiya topdilar. Ayni paytda o'g'llarining biri Germaniyadagi nufuzli oliygohning magistranti bo'lsa, yana biri Kanada davlatidagi o'quv yurtining talabasidir.

Jurnalimiz tahriri yati Shodmon Nomozovni ushbu yuksak unvon bilan tabriklar ekan, yurtimiz ilm-fani taraqqiyoti yo'lida amalga oshirayotgan faoliyatlarida yangidan-yangi zafarlar tilab qoladi.

Mahmud TOIROV,  
o'z muxbirimiz.



Ma'lumki, mamlakatimizda azaldan paxtachilikni rivojlanтирish, g'оza navlari hosildorligini oshirish, turli kasalliklarga bardoshli navlarni yetishtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Bu borada qishloq xo'jaligi olimlari va mutaxassislar, seleksionerlar tomonidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, tadqiqot va tajribalarning ahamiyati beqiyosdir. Shunday olimlar qatorida, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi Abdusattor Abdukarimov alohida о'ringa egaligi shubhasiz. O'zbekiston Fanlar akademiyasi tashkil etilganligiga 80 yil to'lishi munosabati bilan jurnalimiz muxbir A.Abdukarimov bilan uchrashar ekan, ujumladan shunday dedi:

— Biz, olimlar mamlakatimiz rahbariyati, avvalambor Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilm-fanga ko'rsatilayotgan e'tibordan benihoyat mammunmiz. Ilmiy-tadqiqot institutlarida tadqiqotchilar uchun yaratilayotgan sharoitlar, ularning zamonaviy jihatlar bilan ta'minlanganligi bunga yorqin misol bo'la oladi. Bu albatta olim va mutaxassislar zimmasiga qo'shimcha mas'uliyat yuklaydi.

## GENETIKA ILMI DARG'ASI

Toshkent viloyatining Chinoz tumanidagi od-diy dehqon oilasida tavallud topgan Abdusattor Abdukarimov shu tumandagi o'rta maktabni tutgatadi va Toshkent Davlat universiteti biologiya fakultetining kechki bo'limiga o'qishga kiradi. U o'sha yillarda O'zR FA Yadro fizikasi institutining biofizika bo'limida o'z mehnat faoliyatini avvaliga oddiy ishchi sifatida boshlab, so'ngra laborant va mexanik vazifalarida davom ettiradi. 1963-yilda kunduzgi bo'limiga o'tkaziladi va Moskva davlat universiteti biologiya fakultetiga o'qishga yuboriladi. 1966-yili biolog-fiziolog mutaxassisligini oladi. Shu yilining o'zidayoq yosh mutaxassis O'zR FA Biokimyo instituti aspiranturasiga qabul qilinadi va Moskva shahridagi Rossiya Fanlar akademiyasi Oliy nerv faoliyatni va neyrofiziologiya institutiga yuboriladi. U aspiranturani muvaffaqiyatli tuga-tadi va 1970-yilda "Gemato-ensefalik baryerning o'tkazuvchanligini idora etishda tireokalsitonining roli" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi.

1972-1984-yillarda davomida A.Abdukarimov o'z ilmiy faoliyatini akademiklar Yo.To'raqulov va J.Hamidovlar rahbarligi ostida "rivojlanayotgan organizmlar hujayrasida irlsiyatni boshqarishda tireoid gormonlarning roli"ni tadqiq etishga bag'ishlaydi. 1979 yilda u ushbu, taniqli olimlarning ilmiy rahbarligida "Tireoid gormonlar vositasida

irlsiyatni boshqarishning molekulyar-biokimoviy mehanizmi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqlaydi.

1978-yilda A.Abdukarimov tomonidan respublikamizda ilk bor molekulyar biologiya laboratoriysi tashkil qilinadi va faol ijodiy muhit yaratishga erishiladi. Pirovardida, olim tomonidan tireoid gormonlar hujayra sitomplazmasi, mitokondriyasi va yadrosida maxsus oqsil reseptor molekulasi vositasida hayotiy jarayonlarni idora etishda qatnashishi tajribada isbotlanadi.

1982-yili A.Abdukarimov O'zR FA rahbariyati qarori bilan O'zR FA Bioorganik kimyo institutiga o'tkaziladi va bu institutda ilk bor gen injenerligi laboratoriysi tashkil etiladi. Uning keyingi 30 yil davomidagi ilmiy faoliyati taniqli olim va fan asoschisi akademik O.Sodiqov vasiyat etgan go'zaning gen injenerligi biotexnologiyasini yaratish bilan bevosita bog'lanadi. Bu davr ichida u rahbarlik qilayotgan g'o'zaning molekulyar genetikasiga doir qator ilmiy muammolar o'z yechimini topadi.

1997-yilda O'zR FAning sobiq "Biolog" ilmiyishlab chiqarish birlashmasi GvaO'EB institutiga biriktirilgandan so'ng O'zR FA hay'ati tomonidan A.Abdukarimov zimmasiga ushbu institutga rahbarlik qilishdek murakkab va ma'suliyatli vazifa topshiriladi.



U an'anaviy g'o'za genetikasi, seleksiysi, biokimyosi, molekulyar biologiyasi usullarini g'o'za molekulyar genetikasi, gen injenerligi va biotexnologiyasi yutuqlari bilan bog'lab, oqsil va DΝK markerlariga asoslangan yangi g'o'za navlari seleksiysi jarayonini tashkillashtirish uchun Davlat ilmiy-texnik dasturini tuzishga rahbarlik qiladi. Ushbu ilmiy dastur bo'yicha O'zbekiston Respublikasi DFTQ, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, O'zR FA hamda Qishloq xo'jaligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi ko'shma hay'atida A.Abdukarimov ma'ruba qiladi va ma'qullanadi. 2002-yildan boshlab, bu Davlat dasturini DFTQ qabul qiladi va unga mablag' ajratiladi. Endilikda, mazkur institutning faxiri bo'lgan akademik A.Abdullahov rahbarligidagi g'o'zaning yovvoyi turlari va duragaylari kolleksiyasi, marhum akademik J.Musayev boshchiligidagi yarim asr davomida yaratilgan va boyitilgan, dunyoda yagona nusxadagi g'o'za izogen liniyalari kolleksiyasi, seleksionerlarimiz tanlab olgan qimmatbaho va alternativ sifatlarga ega bo'lgan g'o'za shakkllari, g'o'zaning qimmatbaho sifatlarini belgilovchi biokimyoiy va oqsil markerlari majmui DΝK-markerlari bilan uyg'unlashtirilib, markerlarga asoslangan seleksiya dasturi yaratildi.

**Olimning sa'yi-harakatlari bilan 2008 yilda GvaO'EBI qoshida "Genom texnologiyalari markazi" tashkil etiladi. Olim rahbarlik qilgan ushbu markazda dunyoda birinchilardan bo'lib DΝK-markerlar texnologiyasi asosida g'o'zada "noteng birikkanlik" usulini qo'llash bilan tola chiqimi va sifati kabi belgilar bilan birikkan DΝK-markerlari identifikasiya qilindi va g'o'za genomida lokuslarning noteng birikkanlik darajasini aniqlashga erishildi. Hozirgi kunda identifikasiya qilingan ushbu DΝK va gen-spesifik markerlar tola rivojlantirishi genlarini istiqbolli g'o'za navlariga ko'chirib o'tkazish uchun markerlarga asoslangan seleksiya dasturida qo'llanilmoqda.**

2009-yilda A.Abdukarimov rahbarlik qilgan markazning ulkan ilmiy salohiyati hisobga olingan xolda "In situ/on farm sharoitida agro-bioxilm-a-xillikni saqlash va undan foydalanish (mevali turlar va ularning yovvoyi ajdodlari) Bioversity International / UNEP-GEF" loyihasini amalga oshirish mintaqaviy va milliy bo'limi ko'magi bilan "Genom texnologiyalari markazi" qoshida molekulyar markerlar bo'yicha halqaro trening markazi tashkil etildi. Shu kunga qadar ushbu markazda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikiston davlatlaridan 30 dan ziyod yosh olimlarning treningi amalga oshirildi.



**Akademik A.Abdukarimov asos solgan matabni yanada rivojlantirish maqsadida "Genom texnologiyalari markazi" negizida hukumat tomonidan O'zR FA Genomika va bioinformatika markazi tashkil etildi. Hozirgi kunda A.Abdukarimov mazkur markazning asosiy ilmiy maslahatchilardan biri hisoblanadi.**

U o'simliklar molekulyar biologiyasi xalqaro jamiyatining va g'o'za genomini tadqiq qilish xalqaro qo'mitasining (ICGI) a'zosi, Markaziy Osiyo va Kavkazorti mamlakatlari bo'yicha o'simliklar genetik resurslari institutining xalqa-ro koordinatori, o'simliklar genetik resurslari bo'yicha O'zbekistonning milliy koordinatori, BMT Oziqovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining (FAO) O'zbekiston bo'yicha tanlangan tayanch vakili, Davlat kimyo komissiyasining a'zosi, fan va texnika sohasida Beruniy nomidagi davlat mukofoti kengashining a'zosi, g'o'za navlarini joylashtirish



va monitoring qilish bo'yicha ishchi guruh a'zosi, Vazirlar Mahkamasi qoshidagi ilm-fan va texnikani rivojlantirish koordinasion kengashi a'zosi sifatida ko'p qirrali faoliyat ko'rsatdi.

**Bugungi kunda A.Abdukarimov  
O'zbekistonda biotexnologiyani  
rivojlantirish Konsepsiyanining  
shakllanishida va biotexnologiya  
bo'yicha Milliy Dastur loyihasining  
ishlab chiqilishida faol ishtirok etmoqda.  
Xususan, fan sohasida mustaqillikning  
asosiy talabi bo'lmissiz ilmiy kadrlarni  
biotexnologiya fanlari yuksak rivojlangan  
chet el ilmiy markazlarida qayta  
tayyorlashga erishildi.**

Eng yuksak talablarga javob bera oladigan yosh kadrlar salohiyatini yaratish bo'yicha ishlar A.Abdukarimovning doimiy diqqat markazidadir. Taniqli olim, fanni rivojlantirishning va yetuk ilmiy kadrlar tayyorlashning haqiqiy fidoysi hisoblanib, molekulyar biologiya va molekulyar genetika sohalarida hamda bu fanlarga asoslangan biotexnologiyani takomillashtirishda ilmiy omma-ga tanilgan mablag yaratdi. Hozirgi kunga qadar 20 dan ortiq yosh mutaxassislar AQSH, Avstriya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Shveysariya, Janubiy Koreya, Rossiya, Hindiston, Xitoy va Ispaniya kabi dunyoning rivojlangan davlatlari ilmiy markazlarida malaka oshirib, ushbu markazlar bilan ilmiy aloqalarni yo'liga qo'yishdi va shu bilan respublikada fanning rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shib kelmoqda.

**Alloma ilmiy rahbarligida 18 nafar fan nomzodi, 5 nafar fan doktori tayyorlandi.  
O'ZR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutining faol olimlari, yetakchi biotexnologlari prof. Sh.Asimova, prof. P.Muxamedov, prof. I.Abduraxmonov, b.f.d. A. Adilova va Vena Universiteti qoshidagi Mikrobiologiya va genetika institutining ilmiy dastur rahbari b.f.d. A.To'rayevlar shular jumlasidandir.**

A.Abdukarimov hamkorligida 350 dan ortiq ilmiy ishlar chop etilgan bo'lib, 1 ta monografiya,

3 ta darslik, 24 ta patent shular jumlasiga kiradi. 2017-yil "Yilning eng yaxshi darsligi va o'quv adabiyoti muallifi" respublika konkursida uning hamkorligida chop etilgan "Umumiy biologiya" darsligi uchun A.Abdukarimovga birinchi darajali diplom topshirildi.



Olim va uning shogirdlari tomonidan yozilgan ilmiy maqlolar mahalliy va nufuzli xorijiy (AQSH, Fransiya, Germaniya, Rossiya, Ukraina) ixtisoslashgan ilmiy jurnallarda nashr etilgan. Bundan tashqari, A.Abdukarimov qator mamlakatlarda o'tkazilgan xalqaro simpozium, s'yezd va konferensiyalarda bir necha marotaba o'z ma'ruzalar bilan ishtirok etgan.

**“... Genetika ilmi bo'yicha olim, akademik Abdusattor Abdukarimov ilmiy-ijodiy va ijtimoiy faoliyati haqidagi muxtasar hikoyamizga yakun yasan ekanimiz, shubhasiz, u O'zbekiston Fanlar akademiyasi tashkil etilganligining 80 yilligini ulkan ilmiy salohiyat va katta ilmiy-amaliy maqsadlarga yo'naltirilgan ishlar bilan kutib oldi deya olamiz hamda allomaga mustahkam sihat-salomatlik, ilmiy izlanishlarida va ustozlik faoliyatida yangidan-yangi yutuqlar tilaymiz.”**

**Azamat TOIROV,  
o'z muxbirimiz.**



# KAMOLOT PILLAPOYASI

2023/2024-o'quv yili uchun respublika oliy ta'lim muassasalari bakalavriat va magistratura bosqichlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari g'oliblari aniqlandi. Ular orasida agrar va suv xo'jaligi sohasi oliy o'quv yurtlarining yoshlari ham bor.


Tahririyatimiz nomidan g'oliblarni muborakbos etamiz va ularga yanada yuksak parvozlar tilab qolamiz.

## — O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI STIPENDIYASI —

### Toshkent davlat agrar universiteti



Anvarbekova  
Charos  
Anvarbek qizi  
  
Uzumchilik va  
uzumni dastlabki  
qayta ishlash  
  
1-bosqich  
(magistr)



Asatova  
Iroda  
Tulqin qizi  
  
O'simliklar va  
qishloq xo'jaligi  
mahsulotlari  
karantini  
  
3-bosqich  
(bakalavr)

### Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti



Toshpulatova  
Kamola  
Xurshed qizi  
  
Iqtisodiyot ta'lim  
yo'naliishi  
  
4-bosqich  
(bakalavr)

### Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti



Ochildiyeva  
Naima  
Mengziyo qizi  
  
Agrobiznes va  
investitsion  
faoliyat ta'lim  
yo'naliishi  
  
4-bosqich  
(bakalavr)

### Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti



Komilova  
Muniraxon  
Qobuljon qizi  
  
Zooinjeneriya  
ta'lim yo'naliishi  
  
4-bosqich  
(bakalavr)

### Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti



Abdumalikov  
Raxmatillo  
Sherzodbek o'g'li  
  
Buxgalteriya  
hisobi va audit  
ta'lim yo'naliishi  
  
4-bosqich  
(bakalavr)

**Samarqand davlat veterinariya  
meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universiteti  
Toshkent filiali**



Salimova  
Noila  
Yunusovna  
Veterinariya  
farmokologiyasi  
yo'nalishi  
2-bosqich  
(magistr)

**Samarqand davlat veterinariya  
meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universiteti  
Nukus filiali**



Abatbayeva  
Aygul  
Muratbay kizi  
Veterinariya  
diagnostikasi va  
laboratoriya ishi  
ta'lif yo'nalishi  
4-bosqich  
(bakalavr)

**"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti**



Utemuratova Asem Nazarbekovna

Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish ta'lif yo'nalishi

4-bosqich  
(bakalavr)

**"TIQXMMI"  
Milliy tadqiqot universiteti  
Qarshi irrigatsiya va  
agrotexnologiyalar instituti**



Almasova  
Munavvar  
Abdusamad qizi  
Qishloq xo'jaligini  
mexanizatsiya-  
lashtirish ta'lif  
yo'nalishi  
4-bosqich  
(bakalavr)

**"TIQXMMI"  
Milliy tadqiqot universiteti  
Buxoro tabiiy resurslarni  
boshqarish instituti**



Safarov  
Husniddin  
Sirojiddin o'g'li  
Suv xo'jaligi va  
melioratsiya  
ishlarini  
mexanizatsiyalash  
ta'lif yo'nalishi  
4-bosqich  
(bakalavr)




## "BERUNIY" NOMIDAGI DAVLAT STIPENDIYASI

Toshkent davlat agrar universiteti



Mo'ydinov  
Bobur  
Muzaffar o'g'li  
  
Qishloq xo'jaligi  
mahsulotlarini  
saqlash va dastlabki  
qayta ishlash  
texnologiyasi  
yo'nalishi  
  
3-bosqich  
(bakalavr)



Mirzaaxmedova  
Nargiza  
Abdumo'min qizi  
  
Qishloq xo'jaligi  
mahsulotlarini  
saqlash va dastlabki  
qayta ishlash  
texnologiyasi  
yo'nalishi  
  
3-bosqich  
(bakalavr)



Rajabov  
Doniyor  
Baxtiyorovich  
  
Metrologiya,  
standartlashtirish  
va mahsulot  
sifati menejmenti  
yo'nalishi  
  
3-bosqich  
(bakalavr)



Yaxshibekova  
Gulhayo  
Ravshan qizi  
  
Dorivor  
o'simliklarni  
yetishtirish va  
qayta ishlash  
texnologiyasi  
yo'nalishi  
  
2-bosqich  
(bakalavr)

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi  
va agrotexnologiyalar instituti



Uzaqova  
Farida  
Bayram qizi  
  
Ipakchilik va  
tutchilik ta'lrim  
yo'nalishi  
  
4-bosqich  
(bakalavr)


Termiz agrotexnologiyalar va  
innovatsion rivojlanish instituti



Qo'ziboyev  
Jo'rabek  
Baxtiyor o'g'li  
  
Qishloq  
xo'jaligi ekinlari  
seleksiyasi va  
urug'chiligi"  
yo'nalishi  
  
4-bosqich  
(bakalavr)



## Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti



Sobirov  
Saidakbar  
Mahmudbek o'g'li  
O'simliklarni  
himoya qilish  
ta'lif yo'nalishi  
3-bosqich  
(bakalavr)



Abduhalimova  
Odina  
Rustambek qizi  
O'rmonchilik  
ta'lif yo'nalishi  
3-bosqich  
(bakalavr)

## Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti




Elmonov  
Lazizjon  
Xudayberdi o'g'li  
Texnologik  
jarayonlar va  
ishlab chiqarishni  
avtomatlashtirish  
va boshqarish  
(tarmoqlar  
bo'yicha) ta'lif  
yo'nalishi  
4-bosqich  
(bakalavr)



Xudoyqulov  
Islomjon  
Abduraxmon  
o'g'li  
Veterinariya  
meditsinasi  
(faoliyat turlari  
bo'yicha) ta'lif  
yo'nalishi  
4-bosqich  
(bakalavr)

## Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti



Xurshidova  
Marjona  
Abror qizi  
O'simlikshunoslik  
(yaylov-cho'l  
o'simlik-  
shunosligi)  
ta'lif yo'nalishi  
3-bosqich  
(bakalavr)


## Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali



To'raboeva  
Diyora  
Ulug'bek qizi  
Veterinariya  
yo'nalishi  
3-bosqich  
(bakalavr)



## “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti



**Baxriddinova  
Nodiraxon  
Xasanbek qizi**  
**Yer kadastrovi va  
yerdan foydalanish  
ta'limga yo'nalishi**  
**4-bosqich  
(bakalavr)**



**Abdukadirova  
Kamila  
Baxadirovna**  
**Ekologiya va atrof  
muhit muhofazasi  
(Suv xo'jaligida)  
ta'limga yo'nalishi**  
**4-bosqich  
(bakalavr)**



**Jamardov  
Sunnatillo  
Xolmurod o'g'li**  
**Geodeziya va  
geo-informatika  
ta'limga yo'nalishi**  
**3-bosqich  
(bakalavr)**



**Uraimova  
Xonzodabegim  
Mirzaaziz qizi**  
**Qishloq xo'jalik  
mahsulotlarini  
saqlash va dastlabki  
ishlash texnologiyasi  
(mahsulotlar turlari  
bo'yicha) ta'limga  
yo'nalishi**  
**3-bosqich  
(bakalavr)**

## “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti



**O'limasov  
Suxrobek  
Kurshid o'g'li**  
**Meliorativ  
gidrogeologiya  
ta'limga yo'nalishi**  
**4-bosqich  
(bakalavr)**



**Hamroyev  
Ilxomjon  
Fayzullo o'g'li**  
**Qishloq xo'jaligini  
mexanizatsiya-  
lashtirish ta'limga  
yo'nalishi**  
**4-bosqich  
(bakalavr)**

## “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti



**Nosirov Jahongir Komil o'g'li**  
**Yer kadastrovi va yerdan foydalanish ta'limga yo'nalishi**  
**4-bosqich  
(bakalavr)**





## “NAVOIY” NOMIDAGI DAVLAT STIPENDIYASI

**Toshkent davlat agrar universiteti**



**Abdiyev  
Izzat  
Risqiboyevich**

**Turizm  
(agroturizm)  
yo‘nalishi  
2-bosqich  
(bakalavr)**



**Faxriddinova  
Dilobar  
Botirjon qizi**

**Iqtisodiyot  
ta’lim  
yo‘nalishi  
3-bosqich  
(bakalavr)**

**“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti**



**Abduraxmonov Nurbek Azzam o‘g‘li**

**Buxgalteriya hisobi va audit ta’lim yo‘nalishi**

**4-bosqich  
(bakalavr)**

## “ISLOM KARIMOV” NOMIDAGI DAVLAT STIPENDIYASI

**Toshkent davlat agrar universiteti**



**Nurmuhhammadov  
Islom  
Oybek o‘g‘li**

**Marketing  
yo‘nalishi  
4-bosqich  
(bakalavr)**

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasasi,  
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti**



**Yusupova  
Zarifa  
Musurmon qizi**

**Veterinariya meditsinasasi  
(faoliyat turlari bo‘yicha)  
ta’lim yo‘nalishi**

**4-bosqich  
(bakalavr)**

**Andijon qishloq xo‘jaligi va  
agrotexnologiyalar instituti**



**Olimjonova  
Farog‘at  
Dilmurod qizi**

**Turizm  
(agroturizm)  
ta’lim yo‘nalishi  
3-bosqich  
(bakalavr)**

**Termiz agrotexnologiyalar va  
innovation rivojlanish instituti**



**Alimov  
Damirjon  
Odilovich**

**Iqtisodiyot  
ta’lim  
yo‘nalishi  
3-bosqich  
(bakalavr)**



Samarqand davlat veterinariya  
meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universiteti  
Toshkent filiali



Sobirova  
Iroda  
Halilla qizi

Veterinariya  
yo'nalishi  
4-bosqich  
(bakalavr)

Samarqand davlat veterinariya  
meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universiteti  
Nukus filiali



Allamuratova  
Bibizada  
Kadirbay kizi

Zooinjeneriya  
(baliqchilik)  
yo'nalishi  
3-bosqich  
(bakalavr)

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi  
va agrotexnologiyalar instituti



Yuldasheva  
Shaxnoza  
Baxtiyar qizi

Sabzavotchilik,  
polizchilik va  
kartoshkachilik  
ta'lim  
yo'nalishi  
3-bosqich  
(bakalavr)

"TIQXMMI"  
Milliy tadqiqot universiteti



Bektoshov  
Behro'z  
Nuriddin o'g'li

Professional ta'lim:  
(suv xo'jaligi va  
melioratsiya)  
ta'lim  
yo'nalishi  
4-bosqich  
(bakalavr)

"TIQXMMI"  
Milliy tadqiqot universiteti  
Buxoro tabiiy resurslarni  
boshqarish instituti



Toyirov  
Muhriddin  
Zoir o'g'li

Girotexnika  
inshootlar  
va nasos  
stansiyalardan  
foydalanish  
ta'lim yo'nalishi  
4-bosqich  
(bakalavr)

"TIQXMMI"  
Milliy tadqiqot universiteti  
Qarshi irrigatsiya va  
agrotexnologiyalar instituti



Davlatov  
Abdullajon  
Davlat o'g'li

Yer kadastri  
va yerdan  
foydalanish  
ta'lim  
yo'nalishi  
4-bosqich  
(bakalavr)



## “TOLEPBERGEN KAYIPBERGENOV” NOMIDAGI DAVLAT STIPENDIYASI

**Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi  
va agrotexnologiyalar instituti**



Joldasbaeva  
Juldizhan  
Amanbayevna  
  
Qorako'Ichilik  
ta'lif  
yo'naliishi  
  
3-bosqich  
(bakalavr)

**Samarqand davlat veterinariya  
meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universiteti  
Nukus filiali**



Reypnazarova  
Nargiza  
Yernazar kizi  
  
Veterinariya  
meditsinasi  
yo'naliishi  
  
4-bosqich  
(bakalavr)

## “IBRAYIM YUSUPOV” NOMIDAGI DAVLAT STIPENDIYASI

**Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi  
va agrotexnologiyalar instituti**



Uzaqova  
Altinay  
Jenisbay qizi  
  
Qishloq  
xo'jaligi ekinlari  
seleksiyasi va  
urug'chiligi ta'lif  
yo'naliishi  
  
4-bosqich  
(bakalavr)

**Samarqand davlat veterinariya  
meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universiteti  
Nukus filiali**



Madetova  
Nilufar  
Maxkamjan qizi  
  
Veterinariya  
sanitariya  
ekspertizasi  
yo'naliishi  
  
3-bosqich  
(bakalavr)


**Yuksak parvozlarni ko'zlab ta'lif olayotgan, o'zlarining ibratlari  
intilishlari va izlanishlari bilan o'z d'yastlariga o'mak bo'lib kelayotgan  
mazkur talaba yoshlarimizni yana bir bor tabriklaymiz. Jurnalimizning  
keyingi sonlarida ular haqidagi qiziqarli materiallarni e'tiboringizga  
havola etib boramiz.**

*Jonajon diyorimiz ravnaqi  
yo'lida mehnat qilayotgan  
barcha yurtdoshlarimizni,  
jumladan, agrar soha  
xodimlari va olimlarini,  
mirishkor bobodehqon-  
larimizni 2024-yil bilan  
qizg'in muborakbod etamiz.*

*Xonardonlarimiz  
qut-barakali,  
dasturxonlarimiz  
noz-ne'matlarga to'la,  
yurtimiz doimo tinch,  
osmonimiz musaffo  
bo'lsin!*

**Don va dukkancli ekinlar  
ilmiy-tadqiqot instituti  
jamoasi**

# QISHLOQ XO'JALIGIGA OID ATAMALARNING IZOHLI LUG'ATI



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga erishish, o'zbek tilining lug'at boyligini oshiruvchi lingvistik, sohaviy-terminologik, izohli lug'atlar yaratish kabi muhim vazifalar belgilab berilgan.

Ushbu maqsadli vazifani amalgalashuv jarayonlari yillardagi ochiqlik siyosati tufayli o'zaro manfaatlari xalqaro aloqalar kuchayib, xorijiy davlatlar ilg'or tajribasi va zamonaviy texnologiyalari joriy qilinib, ilm-fan yutuqlari va innovatsiyalarni tatbiq etilishi jadallahishib hamda sohadagi globallashuv jarayonlari tobora kengayib bormoqda. Agrar tarmoqqa yangi texnologiyalar bilan bir qatorda xalqaro atamalar va xorijiy terminlar kirib kelishi lug'aviy bazamizning boyishi bilan birlashtirilishida mazmunan to'g'ri qo'llanilishida muayyan muammolarga sabab bo'layotgani ushbu lug'atning yaratish zaruratinini yuzaga keltirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-iyuldagagi "Agrar sohada ilm-fan, ta'lif va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning

qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ushbu lug'atning nashr etilishi va uning elektron variantini yaratilishi ko'zda tutilib, uning moliyaviy manbalari belgilab berilishi bilan mazkur yo'nalishda so'nggi 2 yil davomidagi sa'yi-harakatlar o'zining amaliy yechimini topdi.

Vazirlik tizimidagi Toshkent davlat agrar universitetining bir guruh jonkuyar professor-o'qituvchilarini beminnat mehnati bilan shu paytgacha turli manbalar, ilmiy adabiyot va maqolalarda, o'quv darsliklari va qo'llanmalarida qayd etilgan 6400 ga yaqin sohaviy atamalar izohlari ilk bor yaxlit holda to'plam shaklida chop etildi. Ularni to'plashda "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", "O'zbek tilining izohli lug'ati", "Yosh dehqon ensiklopedik lug'ati" va boshqa ilmiy, ilmiy-ommabop manbalardan foydalanildi.



**Mazkur to'plamda hozirgi paytda muloqot doirasida qo'llanilib kelinayotgan sohaviy terminlar bilan bir qatorda muomala jarayonida tobora kam ishlatilib, unutilib borayotgan atamalarning izohlari yoritilishiga ham muhim e'tibor berilgan.**

Holbuki, qadimda Turon deb atalmish janatmakon zaminimizda sug'orma dehqonchilik madaniyati ko'hna tarixda Misr bilan barobar dunyo davlatlari ichida birinchilardan bo'lib joriy etilganligi yurtimiz tamaddun beshiklaridan biri bo'lganligidan dalolat beradi. Tabiat, iqlim sharoitlari yil davomida dehqonchilik qilish imkoniyatlarini yaratish bilan birgalikda ajdodlarimizda yerdan omilkorlik bilan foydalinish borasida doimiy ravishda bilim, malaka va tajribalarini oshirib borishini taqozo etgan. Soha uchun muhim ichtiro va kashfiyotlari bilan tarixda nomlari muhrlangan allomalarimiz millatimizni dunyoga tanitib, sug'orish madaniyatida xalqimiz ustozlik darajasiga erishishiga muvaffaq bo'lganlar.

Ajdodlarimiz tomonidan ikki ming yil davomida korizlardan foydalanim dasht yerlarda mirishkorlik qilingani, buyuk astronom, matematik va geograf Ahmad al-Farg'oniy sug'orma dehqonchilikda 4 ming yillik tajribaga ega misrliklar uchun ming yilliklar davomida yechilmagan muammo – Nil daryosidagi suv sathini va hajmini o'chaydigan asbob "miqyos ul-jadid"ni xalifa Mutavakkil zamoni (milodiy 846-862-yillar)da yaratgani millatimizning sug'orma dehqonchilik madaniyatidagi dahosi namunalardir.

Ajdodlarimiz boy ilmiy-amaliy merosi davlatimiz yangi tarixida cho'l hududlari va dasht yerlarni o'zlashtirishda muhim omil bo'ldi. Mirzacho'l, Qarshi va Surxon cho'llari, Jizzax va Farg'ona vodiysi dashtlarida millionlab gektar yerlar o'zlashtirilishi, sug'orish tarmoqlari va suv inshootlari barpo etilishi, yuksak mexanizatsiyalashga asoslangan qishloq

xo'jaligi ishlab chiqarishi tashkil etilishi nafaqat Sobiq Ittifoq, balki dunyodagi ko'plab davlatlar uchun yurtimizni haqiqiy tajriba maktabiga aylantirdi.

Sohadagi uzoq va yaqin o'tmishdagi evolyutsion jarayonlar yangidan-yangi bilimlar bilan birgalikda terminologik bazani boyitish va kengayishida muhim omil bo'ldi.

Davlatimiz mustaqilligi yillarida sohada amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, yangicha iqtisodiy munosabatlar joriy qilinishi sohaviy atamalar ko'lamini kengaytirdi.

Agrar tarmoqni zamonaviy ilmga asoslangan rivojlantirishning hozirgi bosqichida ham fan, innovatsiyalar va texnologiyalardagi yangi yo'nalishlarga mos holda sohaga yangidan-yangi atamalar kirib kelmoqda. Ularning etimologiyasi, o'zbek tilida aniq va lo'nda holdagi tarjimasi, mazmuni ilmiy-amaliy jihatdan bir xilda bayon etilishi bilan bog'liq jihatlarga alohida e'tibor qaratildi. Bu borada boy tajribaga ega "O'zbekiston" nashriyotmatbaa ijodiy uyining yuqori malakali muharir mutaxassislari tomonidan to'plamning nashrga tayyorlanishi jarayonida mahorat bilan amalga oshirilgan tahrir ishlari uchun o'z minnatdorchiligidimizni bildiramiz.

**Ushbu lug'atning elektron kitob holida tayyorlash ishlari ham shu kunlarda nihoyasiga yetkaziladi. Bu kitobxonlarimizga yanada katta qulayliklar tug'diradi, albatta.**

"Qishloq xo'jaligiga oid atamalarning izohli lug'ati" agrar sohaning ilmiy va pedagog xodimlari, tadqiqotchilari va talabalari, mutaxassislari, fermerlar va tadbirkorlar uchun ommabop qo'llanmalardan biri bo'lib qolishiga umid qilamiz.

**Eshmirza ABDUALIMOV,**  
O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirining ma'naviy-ma'rifiy ishlari,  
davlat tilini joriy qilish masalalari  
bo'yicha maslahatchisi.



**B**ekdurdy Jumaniyazov 1939-yil 20-yanvarda Xorazm viloyati Xiva tumanida tavallud topgan. O'rta maktabni tamomlagach, shu tumandagi «O'zbekiston» jamoa xo'jaligi tabelchisi sifatida ish boshladi. 1958-1961-yillarda harbiy xizmatni o'tab keldi va butun umrini qishloq xo'jaligiga bag'ishladi. Qirq yil davomida yer bilan «tillashdi», halol mehnatingni doim yuksak in'omlar bilan mukofotlaydigan ona zaminga mehrini, kuch-quvvatini berib, el-yurt farovonligi ortalishiga hissa qo'shdi. Qirq yildan ziyod «O'zbekiston» shirkat xo'jaligi ishchisi sifatida faoliyat olib bordi.

## XORAZMNING IZLANUVCHAN DEHQONI EDI

Bekdurdy Jumaniyazov qishloq xo'jaligi sohasida katta tajriba to'plagan, viloyatda paxtachilik va g'allachilik rivojiga munosib hissa qo'shgan pudratchilardan biri edi. Paxta va bug'doy yetishtirishga ixtisoslashgan maydonlardan unumli foydalanib, yildan-yilga yuqori natijalarga erishdi.

Shirkat xo'jaligida yangi g'o'za navlarini yetishtiruvchi sinovchi urug'chilik markazi tashkil qilingan bo'lib, bu markaz viloyat paxtakorlariga sifatlari urug' yetishtirib berishga ixtisoslashgandi.

Ma'lumki, Xorazm viloyati dehqonlari uchun suv taqchilligi doim muammo bo'lib kelgan. Tajribali dehqon Bekdurdy Jumaniyazov mavjud zovur suvlardidan ham nasoslar yordamida samarali foydalanishni yo'lga qo'yanligi natijasida ekin maydonlarining meliorativ holati yaxshilangan, suvdan unumli foydalanish evaziga hosildorlik oshgan.

Bosh pudratchi Bekdurdy Jumaniyazov bir me'yor, bir qolingga tushib olib ishslashni yoqtirmasdi. Doim yangiliklar, mehnat samadarligini, yer hosildorligi va yetishtiriladigan

mahsulot sifatini yaxshilash yo'lida izlanardi. Tajribali dehqonlardan o'rganish, o'z ishlarning tahliliy xulosalariga asoslanish natijasida iqlim va tuproq sharoitiga moslashgan yangi g'o'za navlarini yetishtirdi, mamlakat paxtakorlariga sifatlari urug' yetkazib berishga katta hissa qo'shdi. Buning uchun paxtachilik ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlik qildi, yerga ishlov berishda zamonaviy texnikalardan oqilona foydalandi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishslash yo'nalişlarida samarali natijalarga erishdi.

Mirishkor dehqon tumanda, viloyatda bog'dorchilik, polizchilik sohasini rivojlantirish borasida ham faol ishlar olib borgan. Ayniqsa, Xorazmnинг qadimiy gurvak, olaxommo, zargulobi, Xorazm gulobi kabi qovun navlarini tiklashda amalii natijalarga erishdi.

Yuzaki qaraganda, odatiydek tuyuladigan mana shu faoliyatning o'zi qahramonimizning xalq an'analariga, uning ming yillar davomida saqlab kelgan dehqonchilik madaniyatiga qanchalar jonkuyarlik bilan yondashganini yaqqol ko'rsatadi. Zero, qovunchilik, umuman, noyob



poliz ekinlarining urug'chiligi doimiy e'tibor va diqqat talab qiladigan sohalardandir. Bungungi kunda Xorazm qovunlari o'zining azaliy shuhratini tiklagan bo'lsa, bu savobli ishda Bekdurdni og'aning ham munosib hissasi bor.

Jamoat ishlarida tashabbuskor, jonkuyar, tadbirdor, tashkilotchi edi. Ayniqsa, keksalar salomatligi, yoshlarning biror ish bilan band bo'lishi kabi masalalarda elga qo'lidan kelganicha yordam berardi. Mustaqillikning ilk yillarida mahallalar, ta'lim muassasalari, mehnat jamoalarida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirdorda ishtirok etib, yurtimiz hayotining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar va erishilgan yutuqlarni faxr-iftixor bilan targ'ib qildi.

Turmush o'rtog'i Anabibi Abdusattorova bilan 3 nafar o'g'il, 4 nafar qizni kamolga yetkazdilar.

**“ Kamtarin, elu yurt ishiga fidoyi, hamisha yuksak marralarni ko'zlab, izlanib, intilib kelgan Bekdurdni Jumaniyazov mehnatlari uchun davlatimiz tomonidan 2000 yili «O'zbekiston Qahramoni» unvoni bilan taqdirlandi. «Bu sharaf menga inson qadr-qimmatini oshirgan mustaqillik ne'mati tufayli nasib etdi», der edi Qahramon faxr bilan.**

Bekdurdni Jumaniyazov agar hayot bo'lganida shu kunlarda 85 yoshni qarshilagan bo'lar edi. Bugungi kunda uning ezgu ishlarini farzandlari va shogirdlari davom ettirmoqda.

**Ulug'bek MAMAJONOV,**  
o'z muxbirimiz.



# NOSOZ MASHINALARNI TA`MIRGA TAYYORLASH



Har qanday texnika singari qishloq xo'jaligi mashinalari ham vaqt o'tishi bilan ishdan chiqadi. Barcha turdag'i qishloq xo'jaligi mashinalari tuproq, o'simlik bilan o'zaro ta'sirda, ya'ni og'ir sharoitda ishlagan sababli agroteknik mavsumlar va yil yakunlangandan keyin ta'mirtalab holga keladi. Bunday mashinalar servis korxonalarini, klasterlar va fermer xo'jaliklarining ustaxonalarida ta'mirlanadi. Nosoz mashinalar ustaxonalarda ta'mirga tayyorlanadi, qismlarga ajratiladi va diagnostikalanadi.

## Mashinalarni ta'mirlashga tayyorlash

Ustaxonaga keltirilgan nosoz mashina ta'mirga topshirishdan oldin moy, chang va zangdan latta, qirg'ich, simli cho'tka yordamida yaxshilab tozalanadi. Shundan so'ng mashina betonlangan yoki asfaltlangan, ya'ni qattiq yuzali maydonchada to'rt tarafidan yuqori bosimli SUV sepib yuviladi. Yuvish qurilmasi bo'limgan taqdirda uni vodoprovod suvida ham yuvsaboldi.

Traktorning dvigateli, karter, yonilg'i, moy va gidravlika na-

sosları, reduktorlar, uzatmalar qutisi, gidroko'targich kabi suyuqlik solinadigan uzellar kerosin yoki maxsus eritmalaridan biri bilan yuviladi. Eritmalar tarkibi: 1 litr suvga 100-150 gramm kalsiyasnaylashtirilgan soda; 1 litr suvga xlorid kislotaning 5 foizli eritmasidan 100 gramm; 1 litr suvga 75-80 gramm kaustik soda va 25 gramm kerosin.

Traktorning elektronika qurilmalari, elektr jihozlari, yonilg'i nasosi va forsunkalari, ventilya-

tor tasmalari yechib olinadi va omborga topshiriladi. Uzatmalar qutisi, ketingi ko'priki va oxirgi uzatmalarining karterlaridagi moy to'kib yuboriladi, o'rniiga dizel yonilg'isi quyiladi va 5-10 daqiqa mobaynida traktor barcha uzatmalarda haydaladi. Ifoslangan yonilg'i to'kib tashlanadi. Dvigatel karterini yuvish uchun undagi moy o'rniiga dizel yonilg'isi solinadi va dvigatel 3-5 daqiqa salt ishlatib qo'yiladi, keyin iflos aralashma to'kib tashlanadi.

## Mashinani qismlarga ajratish

Tashqi sirti yuvilgan mashina syexda agregatlar va uzellarga, ular esa detallarga ajratiladi. Qismlarga ajratish paytida faqat kalit va buramalalar ishlatiladi, lom, bolg'a va zubilodan foydalanish manqilinadi.

Zanglagan, kuygan yoki rezbasi deformatsiyalangan birikmalarni bo'shatishda tores kalitlar ishlatiladi. Kuch ishlatish to'g'ri keladigan qo'zg'almas birikmalar presslar yordamida qismlarga ajratiladi.

Vtulkalar va vallarni chiqarishda ularni shikastlamaslik maqsadida otboynik va tishli chiqargichlar qo'llaniladi.

Ba'zi uzellarni to'la qismlarga ajratishning hojati yo'q. Masalan, plug korpusida lemmelarni, yonilg'i nasosida plunjер juftlarini almashtirish kifoya. Qismlarga ajratilgan uzellar va detallar raqamlanadi, alohida joyda tartib bilan vaqtincha saqlovga qo'yiladi.



## Mashinani diagnostikalash

Bunda qismlarning sozligi va ishga yaroqlilik darajasi tekshiriladi; qism va uzellarning texnik holatlari baholanadi; mukammal yoki joriy ta'mirlash zarur bo'lgan ob'yeqtlar aniqlanadi.

Diagnostika jarayonida mashinaning texnik holatini baholovchi parametrlar (qismlarning tebranishlar va shovqin darajasi, moy bosimi va boshq.) tekshiriladi. Masalan, bir vaqtda dvigatel tebranishining ortishi va moy bosimining kamayishi tirsakli val podshipniklari yeyilganini ko'rsatadi. Tajribali mexanizator va mexaniklar qismlarga «soz» yoki «nosoz», «yaroqli» yoki «yaroqsiz» deb baho berishda diagnostik alomatlardan keng foydalanadi. Chunonchi, dvigateldan qora tutun chiqayotgan bo'lsa, porshen, gilza, forsunkalar va yonilg'i nasosi tekshiriladi. Ilashish muftasining shataksirashi, uzatmalar qutisi, orqa ko'priki va podshipniklar korpuslarining qizishi, aylanayotgan detallardan chiqayotgan begona shovqinlarga qarab ulardagi nosozliklar aniqlanadi.

## Uzel va detallardagi nuqsonlarni aniqlash (defektovka)

Bu tadbirni o'tkazishdan asosiy maqsad, ta'mirlashni talab qilmaydigan (soz), ta'mortalab (nosoz) va butunlay yaroqsiz (brak) detal va uzellarni aniqlashdir.

Nuqsonlar bevosita ko'zdan kechirish (yeyilishlar, darzlar, yoriqlar), qo'l bilan ishlatib yoki o'lchab ko'rish (yengil aylanish, siljish, lyuftlar), maxsus asboblar va moslamalar yordamida tekshirish (masalan, prujinalarning elastikligi, yonilg'i sarfi) va sinash (masalan, moy nasosining bosimi) orqali aniqlanadi.

Defektovka natijalari bilan kerakli ehtiyyot qismlar va ta'mirlash materiallarining turlari (koks, elektrod, metal prokati va boshqalar) va miqdorlari aniqlanadi, servis markazlari yoki maxsus ta'mirlash korxonalarida tiklanishi zarur bo'lgan nosoz uzel va detallar ro'yxati tuziladi. Ularning bir qismi ustaxonada yasaladi yoki sotib olinadi.

## Yeyilgan detallarni tiklash

Bunday detallar metall yopishtirish (payvandlash, metal singdirish, elektrolit qoplash), plastik deformatsiyalash, qo'shimcha ta'mir detallarini qo'yish yoki boshqa usullar bilan tiklanadi. Tiklangan detallar normal yoki ta'mir o'lchamigacha qayta ishlanadi.

Shunday qilib, nosoz texnikalarni o'z vaqtida ustaxona-larga jamlash va ta'mirga tayyorlash mashinalar ish qobiliyatini qayta tiklash sifatini oshiradigan, xarajatlarini kamaytiradigan muhim omillardan biridir.

**Muhammad TOSHBOLTAYEV,**  
t.f.d., professor,  
QXMITI.



## BIR TONNASI 304 750 000 SO'M

**O**'tgan asrning oltmishinchisi yillariga qadar dunyo qit'a-laridagi suv havzalari orasida Orol dengizi kattaligi jihatidan to'rtinchi o'rinni egallagan. Shundan keyin quyiladigan suvning tobora kamayishi tufayli uning maydoni 8, hajmi 13 barobar qisqardi, 90-yillarga kelib, kichik hamda katta Orolga bo'lindi. Olim va mutaxassislarining fikricha, hozirgi kunda suvning mineralanish darajasi litriga 150 grammdan ham ortib ketgan. Orol endilikda jahoning eng yirik sho'r suv havzasi sanaladi.

Bir paytlari bu yerda baliqning 60 dan ziyod turi uchragani, ularning 40 dan ortiq turi ovlangani tarixiy voqelikka aylangan bo'lsa, endilikda uning suvida faqt bitta jonzot – artemiya yashayapti. U mutatsiyaga uchramay, 100 million yillardan buyon o'zgarishsiz yashab kelayotgan oddiy organizm hisoblanadi. Uning tuxumi – sistasiga ikki yuz darajadagi sovuq ham, o'n minglab yillab zaharli moddalar bilan to'yingan joyda qolib ketgan taqdirda ham yashashiga imkon tug'ilishi bilan lichinkalari xuddi hech narsani ko'rmaganday jonlanib ketaveradi.

Dunyo tajribasida artemiya sistalari asosida olingen mahsulotlar 5 ta sohada, ya'ni akvamadaniyat sanoatida, qishloq xo'jaligida, farmasevtika, tibbiyot va kosmetologiyada keng qo'llaniladi. Jumladan, u endokrin va qon tomiri tizimi kasalliklarining oldini olishda, oziqlanishda biologik faol qo'shimcha sifatida, shuningdek, nuklein kislotasi, yod manbasi, kanserogen kasalliklarni davolashda saratonga qarshi dori sifatida foydalaniлади.

2023-yil 17-oktabrdan O'zbekiston respublikasi tovar-xomashyo birjasining savdolarida mazkur noyob – artemiya sistasi qo'yila boshlandi. Uning sotuvchisi sifatida "Aral Artemiya Sanaat" MCHJ ishtirok etmoqda.

**Hozirgi paytda artemiya sistasining ichki birja savdolari uchun 89889-son shartnomasi ochilgan. Unga muvofiq, mahsulot bir tonnasining boshlang'ich narxi – 103 250 000 so'mni tashkil qiladi. Tovarni yetkazib berish sharti – EXW, ya'ni sotuvchining omboridan olib ketish hisoblanadi.**

Dastlabki kunda birja savdolari orqali 20 tonna artemiya sistasi deyarli 6,1 milliard so'mga sotildi. Shu bilan birga, yangi mahsulotning birja kotirovkasi bir tonna uchun 304 750 000 so'mga teng bo'ldi.

**Abdurauf QORJOVOV,**  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist.

QUTLOV

*Amu-Qashqadaryo  
irrigatsiya tizimlari  
havza boshqarmasi  
jamoasi*

*barcha vatandoshlarimizni  
Yangi 2024-yil*

*bilan tabriklaydi.*

*Yangi yil barakotli va fayzli bo'lsin!*

SUV - HAYOT MAMBAI



ENG'AZIZ VA  
MUQANDAS  
TUYG U-  
INSON OQRDRINI  
ULUG LASHDIR !

# ENDI QANDAY EKINCA

## E'TIBOR BERAMIZ?

Dunyo tabiiy resurslari instituti ma'lumotlariga ko'ra, 2040-yilga borib, Yer sharida iqlim o'zgarishi oqibatida 80 foiz aholi suv tanqisligiga duch kelishi mumkin.

BMT Iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiysi (COP28) ishtirokchilari joriy yil 30-noyabr – 12-dekabr kunlari Dubay shahrida bo'lib o'tgan 28-konferensiya doirasidagi Iqlim bo'yicha jahon sammitida ekologik muammolarni chucher muhokama qilib, aniq takliflarni ilgari surishdi. Davlatimiz rahbari ham konferensiyada iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari barqaror rivojlanish yo'lida eng asosiy tahdidiga aylanganini ta'kidladi. Zero, bir vaqtlar ayrim mamlakatlardagina kuzatilgan iqlim muammolari bugunga kelib, sayyoramizni qamrab olmoqda.

Har bir davlat bu borada bir-biriga bog'liq bo'lgani holda yechimlarni ham, kurash choratadbirlarini ham birqalikda izlashiga to'g'ri kelyapti. Bu muammolarning asosiy qismi esa, avvalo, oziq-ovqat xavfsizligiga borib taqaladi. Boisi, havo harorati o'zgarishidan tortib, suv taqchilligi, cho'llanish, qurg'oqchilik, atmosfera ifloslanishi, transport vositalarininig ko'payib borishi, tashlanadigan zaharli gazlar miqdori oshib ketishi kabi omillarning bari bevosita oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishda qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda.

Tahlillarga ko'ra, qishloq xo'jaligi sohasi dunyodagi o'rtacha suv iste'molining taxminan 70 foizini ishlatgan holda, hudud jihatdan taxminan 12 foizni tashkil etadi. Bizda asosiy suv sarfi madaniy ekinlarni sug'orishga sarflanmoqda va biz hali hamon 4 mln. gektardan ortiqroq maydonlarimizda suvni to'liq tejashta erishmadik. O'zimizni o'zimiz g'alla bilan ta'minlashimiz uchun bug'doy maydonlarida sarflanadigan suvlarni tejashta yangi texnologiyalarga o'tish zarur. G'o'za ekini qancha suv talab qiladi, ammo bugun olingen hosil sarflangan suv sarfini qoplaydimi degan savollar ko'ndalang bo'imqoda. Masalan, yurtimizda 1 tonna bug'doy

donini yetishtirish uchun 1,5 ming, 1 tonna sholi yetishtirish uchun 4 ming, bir tonna paxta tolasi uchun esa 10-12 ming kub metr suv sarflanadi.

Hozirgi vaziyat suv kam talab qiladigan, eng avvalo, o'suv davri qisqa ekinlarni tanlashni taqozo etmoqda. Endilikda qishloq xo'jaligidagi ekinlar strukturasiga e'tibor qaratish lozim. Chunki suv tanqisligi yildan-yilga kucha-yib boradi, endi oldingiday qorli qishlar bo'lmaydi, daryolarmiz suvlarga to'lib oqmaydi, demak suv kam talab qiladigan ekinlarni ekib, ulardan oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabimizni qondirishimiz va eksport qilishga erishishimiz kerak. Hozirgacha bizda mahsulotlarni import qilish eksportga qaraganda ko'proqdir.

Qadimdan Markaziy Osiyo va Xitoy davlatlarida bosh ekin bo'lib kelgan, ana shunday ekinlardan biri tariqidir. Uning shunday navlari borki, 50-60 kunda pishib yetiladi va iste'mol qilish mumkin bo'lgan sifatli don beradi. U tuproqda namlik miqdori juda kam bo'lganda ham, ya'ni 48 foiz bo'lgan vaqtda ham unib chiqadi. Bugungi kundagi iqlim o'zgarishlaridan kelib chiqib, FAO tavsiyasi bo'yicha qurg'oqchilikka chidamliligi va barcha xususiyatlarni e'tiborga olib, 2023 yil Xalqaro tariq yili, deb e'lon qilingan edi.



## Tariq

Tariqning 100 kilosidan 87 foizgacha yorma doni olinadi. Bu ekin yer tanlamaydi, poxoli ham bug'doy somonidan ko'ra to'yimliroq. Donida 10-15 foiz oqsil, 50 foiz uglevod, 3,8 foiz moy mavjud. O'z xususiyatlari ko'ra tariq eng og'ir va noqulay sharoitda ham yetishtirsa bo'ladiqan ekin, qurg'oqchilikka va issiqqa chidamli. Balandligi 50-150 santimetrga boradi. Tuproqdagagi namlikni yaxshi o'zlashtiradi, sho'r joylarda ham tez rivojlanadi. Bir gektardan 3 tonna don va 6 tonna somon olish mumkin.

Tariqning ertapishar navlari bahorda tuproq harorati 10-12 darajada bo'lganda ekilishi va har 55-65 kunda pishib yetilishi tufayli bir yilda uch marta hosil olish mumkin. Yozda kuzgi bug'doydan so'ng ekilgan tariq ikki marta sug'orish orqali ham yaxshi don beradi. Afsuski, yurtimizda bu ekin seleksiyasi va agrotexnikasi ustida mutlaqo ishlanmagan. Uning 500 ga yaqin turi bo'lishiga qaramay, O'zbekistonda yarim asrdan buyon, asosan, "Saratovskaya-853" navi ekip kelinadi. Jahon tariqchiligi esa juda ilgarilab ketgan. Bugungi kunda tariq o'simligi Qoraqalpog'iston, Buxoro va Navoiy viloyatlarida aholining shaxsiy tomorqasida ekilmoqda, xolos. Hozir ham Qoraqalpog'istonga borsangiz "suk oshi" ichib kelishingiz mumkin.



## Yasmiq



Asl vatani O'zbekiston bo'lib, hozirgi paytda anchayin unutilgan yasmiq o'simligining ham o'suv davri qisqa, erta bahorda ekilib, ikki marta sug'orilsa, hosil beradi. Yasmiq doni tarkibida 30-32 foiz oqsil bor, tez pishadi. Ertalarda yoki ob-havoning kelishiga qarab, fevral oyining ikkinchi yarmida eksa bo'ladi. Shunday yo'l tutilsa, yasmiq may oyi o'ttasi yoki oxirida pishib yetiladi. Yasmiq unidan non tayyorlanadi va bolalar ovqatlariga foydali modda sifatida qoshiladi. Yana bir jihatbu ekin dukkaklilar oilasiga mansub bo'lganligi uchun tuproqda o'zidan keyin azot qoldirib ketadi.

Ayni paytda dunyoda yasmiq maydonlari 7 million gektardan ortiq bo'lib, Turkiya va Arab mamlakatlarida keng maydonlarda yetishtiriladi hamda oziq-ovqat sanoatida asosiy xomashyo xisoblanadi.

## Kunjut



Kunjut qadimdan Markaziy Osiyoda lalmi yerkarda ekip kelingan. Ursuvi kam talab qiladigan, urug'lari tarkibida ko'p moy saqlaydigan o'simliklardan biridir. Dunyoda hech bir ekin kunjut kabi urug'larda ko'p moy saqlamaydi, uning 100 kg urug'ida laboratoriyanida 60-63 kg, juvozda esa 50 kg iste'mol uchun zarur bo'lgan sifatlari moy olinadi. Dunyoda kunjut maydonlari 11,7 million gektarni, yalpi hosili 6 million tonnani tashkil etadi.

Mamlakatimizda kunjut, asosan, lalmi hududlarda ekilib, 4-6 syentner atrofida hosil olinadi. Sug'oriladigan maydonlarda esa gektardan 20-25 syentnergacha tosh bosadi. Buning uchun ikki marta sug'orish kifoya. Bu bir gektardan bir tonnadan ortiq ekologik toza iste'mol moyi olinadi, degani. Kunjutning shrotidan mazzali turli holvalar tayyorlandi. Afsuski, yurtimizdagagi sug'oriladigan maydonlarda kunjut juda kam ekiladi, ammo iste'mol uchun xorijdan qancha miqdorda o'simlik moyi import qilib keltiriladi. Chunki biz o'zimizda yetishtirgan moyli urug' xomashyomiz bilan o'zimizni ta'minlamaymiz. Chetdan sotib olishga majburmiz. Nega ekmayapmiz, ustida ishlaylik, seleksiyasi va yetishtirish texnologiyasini bizga kim kelib o'rgatadi?



## Jo'xori

Bizda unutilayotgan yana bir donli ekin mavjud bo'lib, aslida, ota-bobolarimiz shu ekin orqali eng og'ir paytlarda ham qora qozonini qaynatgan va tirkchiligini o'tkazgan. Bu jo'xori. U qurg'oqchilikka o'ta chidamli, donidan Afrika va Osiyo xalqlari hozirgacha non tayyorlaydi. Jo'xori unini bug'doynikiga qo'shib non tayyorlaganda to'yimliliqi ancha oshadi. Jo'xori donidan zog'ora non tayyorlanganini, dasturxon ko'rgi bo'lganini yoshi ulug'lar yaxshi eslaydi.

Jo'xorining yana bir ustunligi shundaki, u makkajo'xoriga qaranga ikki barobar kam suv talab qiladi, sho'rangan tuproqlarda ham o'saveradi.

FAO ma'lumotlariga ko'ra, jo'xori ekiladigan maydonlar yildan-yilga oshib bormoqda. Bu ekin maydonlari hozirgi kunda dunyo dehqonchiligidagi 85 million hektarni tashkil etadi. Uning qariyb teng yarmi Osiyo, qolgan qismi Afrika va Amerika hissasiga to'g'ri keladi. **Demak, Osiyo va Afrika aholisi o'z ehtiyoji uchun zarur donli oziq-ovqatni hozirgacha jo'xori donidan olib kelmoqda, biz esa uni osongina unutdik.**

**Global isish hatto Yevropa mamlakatlariha ham tahdid solmoqda.** Shuning uchun ular, jumladan, Fransiya, Ispaniya va Italiya uni yetishtirishga katta e'tibor qaratmoqda. Avstraliyada esa jo'xori maydonlari keyingi 20 yilda 10 karra kengaydi, hosildorligi 14 karra oshdi. Nega bizda muhim bo'lgan bu ekining na seleksiyasi, na agrotexnikasi bilan hech kim shug'ullanmaydi?

Haliyam rahmat, qaysi bir fermerlar urug'larni yo'qotmasdan jo'xorini ekip kelishmoqda.

Xitoya jo'xori davlatning strategik ekinlari ro'yxtigiga kiritilgan. Bu mamlakat odatda AQSH va Avstraliyadan jo'xori sotib oladi, shu bilan birga, Amerika jo'xorisining 60 foizga yaqini Xitoya eksport qilinadi. Dunyoda ushbu ekin inson ozuqasida bug'doy, sholi, soyadan keyin to'rtinchli o'rinda turadi. Vitaminlar va mikroelementlarga boy. Uni bir marta ekip, uch marta o'rib olishingiz mumkin.

Bugungi tuproq sho'rланishida hech bir ekin o'sa olmaydigan joyda faqtgina **soya va jo'xori** o'sa oladi. Buxoro viloyatining Jondor tumanida sinab ko'rganman, g'o'za va makkajo'xori sho'rda o'smay qurib qolgan, ammo soya o'simligi bemalol o'sib, ikki suv bilan hosil bergen.

Uning yana bir turi qand jo'xori bo'lib, moyalaridagi bo'g'imlarida qand moddasi bor, suvga kam talabchan. Shakar ishlab chiqaruvchi korxonalar xomashyo sifatida foydalanishi mumkin.

## Sholi



**Sholining** suvga chidamli bostirib sug'orilmaydigan boshqa ekinlar kabi sug'orib o'stiriladigan navlari sholichilik mamlakatlarda mavjud, bu borada ham qilinadigan ishlar juda ko'p. Sholi o'simligini O'zbekiston dehqonchiligidan chiqarib bo'lmaydi, chunki unga doimo talab bor, shunday ekan, biz yangi texnologiyalarni qidirib topib, yangicha ishlashimiz kerak.

Demak, endi qishloq xo'jaligida ekinlarni hududlar bo'yicha taqsimlashda iqlim o'zgarishini va suv tanqisligini e'tiborga olishni, suvga kam talabchan, qadimgi ekinlarni ekishni davrning o'zi kun tartibiga qo'yamoqda. Bunday ekinlar yetishtirish agrotexnikasi, yangi navlarni yaratish, seleksiyasi va qayta ishslash sanoatini, eksport salohiyatini o'ylagan holda ish olib borishni taqozo etadi.

Shunday ekan, ularning yangi navlari, seleksiyasi va urug'chiligi, agrotexnikasi bo'yicha izlanishlarni hamda qishloq xo'jaligida ekin maydonlari strukturasiga sekin-asta o'zgartirish kiritishni vaziyat talab qiladi. Albatta, bu ishga birdan emas, asta-sekinlik bilan kirishib, dunyo qishloq xo'jaligiga qarab o'z rejalarimizni belgilab borishimiz lozim.

**Dilorom YORMATOVA,**  
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor.



## KO'RSATKICH VA NATIJALAR E`TIROFGA LOYIQ

**P**rezidentimizning 2021-yil 24-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2021-2023 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash borasida Jizzax viloyatida muayyan ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, 2021-2022-yillarda 32,3 kilometr kanallar, 75,9 kilometr lotokli sug'orish tarmoqlari, 2 ta gidrotexnik inshoot barpo etildi. 2,4 kilometr qirg'oqni himoyalash – qurilish va rekonstruksiya ishlari bajarildi. Buning natijasida 14,8 ming hektar ekin maydonlarining suv ta'minoti yaxhilandi. Shuningdek, ikki yil ichida 652,1 kilometri kanallar tozalanib, 487ta gidrotexnik inshoot va 504 ta gidropost ta'mirladi. Bu 118 ming hektar maydonning suv ta'minoti yaxhilanishiga kafil bo'ldi.

Joriy yilning o'zida 365 ta suv o'lchash postlariga "aqlli suv" qurilmalari o'rnatildi. Ular orqali suv miqdorini onlayn nazorat qilish imkoniyati vujudga keldi. Meliorativ kuzatuv quduqlariga yerlarning sho'rланishi va minerallashuv darajasini onlayn monitoring qilish imkonini beruvchi 182 ta "dayver" qurilma o'rnatildi.

Sohaga oliy ma'lumotli malakali kadrlarni ishga qabul qilish, ularning bilim, tajriba va ko'nikmalarini oshirish, us-toz-shogird an'anasin davom

ettirish, ishga yangi qabul qilin-gan yoshlarga shart-sharoitlar yaratish choralar ko'rilmoxda. Tizim tashkilotlariga 2023-yilning o'zida 53 nafr oliy ma'lumotli yosh ishga qabul qilindi.

Suv tanqisligi yildan yilga o'z ta'sirini ko'rsatib bormoqda. Obi-hayot yetishmasligi oqibat-larini kamaytirish uchun viloyatning 17 ming gektardan ortiq ekin maydonlarida tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish texnologiyalari joriy qilinib, 15,6 million kub metr suv iqtisod qilindi.

Viloyat suv xo'jaligi tizimining bugungi kun talabi darajasida faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida muntazam ravishda mavjud nasos stansiyalarini yangilash, joriy va mukammal ta'mirlash, rekonstruksiya qilish ishlariiga e'tibor qaratib kelinmoqda. Jumladan, 2021-2023 yillar oralig'iда 21 ta nasos yangisiga almashtirildi.

Tizimda ilg'or innovatsion usul – davlat-xususiy sheriklik shartlariga o'tish borasidagi ishlar ham alohida ta'kidlashga arziyi. 2021-22-yillar mobaynida

4 ta loyiha doirasida 11 ta nasos stansiyasi va 22 ta sug'orish qudug'i davlat-xususiy sheriklik tizimiga o'tdi. Bu ishlarning samarasi va foydasi kattaligi aniq. Shuning uchun ham yaqin kelajakda yana 10 ta nasos stansiyasini boshqarishni davlat-xususiy sheriklik tizimiga o'tkazish rejalashtirilyapti.

Melioratsiya ob'yektlarini qurish va rekonstruksiya qilish borasida ham salmoqli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, joriy yilning o'zida 24,96 kilometr kollektor va 47,19 kilometr yopiq-yotiq drenaj tarmoqlari qurildi yoki rekonstruksiya qilindi. 985 kilometr kollektor tarmoqlarida ta'mirlash-tiklash ishlari amalga oshirildi. Ushbu bunyodkorlik ishlari tufayli 57,6 ming hektar sug'oriladigan maydonlarning meliorativ xolati yaxhilandi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ushbu dalil va raqamlar birgina Sirdaryo-Zarafshon ITBH tasarrufidagi tashkilotlar kesimida amalga oshirilgan ishlarning qisqacha tahvilidan iborat. Jizzax viloyatida bevosita respublika Suv xo'jaligi vazirligiga bo'ysunuvchi Jizzax bosh nasos stansiyalari, Janubiy Mirzacho'l magistral kanali, viloyat suv omborlaridan foydalanish boshqarmalari, "Jizzaxsuvqurilish invest" davlat muassasasi kabi tashkilotlar ham faolyat ko'rsatmoqda.

Ana shu mehnat jamoalarida erishilgan natijalar ham qo'shilsa, Jizzax viloyati suv xo'jaligi tizimining 2023 yilgi ijobiy ko'rsatkichlari bundan-da yirik va salmoqli bo'lishi shubhasiz. Bu esa, Jizzax viloyati suvchilari yangi 2024 yilni har jihatdan munosib kutib olganini tasdiqlab turibdi.

**Baxtiyor RAHMATOV,**  
Sirdaryo-Zarafshon ITBH  
boshlig'i o'rinbosari.

# ARSLON IZIDAN QAYTMAS...

2023 yil 21 dekabr kuni poytaxtimizda "Suv xo'jaligi vaziri va yoshlari forumi" bo'lib o'tdi. Anjuman ishida vazirlik vakillari, yurtimizning barcha tizim tashkilotlaridan kelgan yosh suvchilar, hayoti va faoliyatini irrigasiya va me'llioratsiya sohasiga bag'ishlashni niyat qilgan talabalar, OAV muxbirlari ishtirok etdi.

Forumda Suv xo'jaligi vaziri yoshlarga murojaat bilan chiqdi. Shavkat Xam-rayev o'z nutqida yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning sharoitini yaxshilash, tajribasini oshirish, rahbar lavozimlarga tarbiyalash soha rahbariyatining doimiy e'tiborida turganini alohida e'tirof etdi.

O'z navbatida yoshlari ham so'z olib, ish, ilm olish, madaniy, ma'rifiy va sport sohalarida erishayotgan yutuqlari haqida faxr bilan gapirib berishdi.

Jizzax viloyatidagi "Tuyat-tortar Qli" irrigatsiya tizimi boshqarmasi boshlig'i Arslon Mustaqovning chiqishi ko'pchilikning e'tiborini tortdi. Anjuman ishtirokchilari, uning ishini onlaysin tarzda kuzatib borgan minglab suvchilarining fikr-mulohazalariga, hatto ayrim bash va munozalalarga sabab bo'ldi.

Biz Arslon bilan uchrashdik. Undan Toshkentdag'i forumda Suv xo'jaligi vaziriga o'z jamoasida amalga oshirilgan va rejalashtirilgan ishlar haqida bayon qilgan mulohazalarini yana bir bor sharhlab berishni so'radik.

**— Bugungi yoshlarning aksariyati tezroq va oson yo'l bilan pul topishga ishtiyoqmand ekani sir emas,— dedi A.Mustaqov. — Shuning uchun ham ular o'zlarini turli vaqtin-chalik ishlarga urishmoqda, chunonchi, xorijga chiqib, nima qilib bo'lsa-da, mo'may daromad topishga harakat qilishmoqda.**

Tashkilotimizda 59 kishi mehnat qiladi, ularning 70 foizini 30 yoshta ham kirmagan yigit-qizlar tashkil etadi. Shu yoshlarni safimizda ushlab qolish, ularning qalbida sohamizga nisbatan mehr-muhabbat uyg'otish, xalqimizning "suv keltirgan – aziz", degan purhikmat maqoli bejiz aytilmaganini uqtirish bosh maqsadimiz.

Albatta, faqat yaxshi muomala, chiroqli so'zlar, va'dalar bilan ish bitmaydi. Yosh kadr bajara-yotgan ishi uchun munosib va adolatlari haq to'langan, ishdan bo'sh paytini mazmunli va maroqli o'tkazish uchun shart-sharoit yaratilgan taqdirdagina mana shu jamao o'zi uchun kerakligini anglab yetadi.

**— Boshqarmamiz tasarrufidagi suv yo'llari yoqasida 65 gektardan ortiq bo'sh yotgan yerlar bor edi,— deya so'zida davom etadi A.Mustaqov. — Shu hududning 35 gektarini**



ishchi-xodimlarimizga teng taqsimlab berdik. Ularga bu yerlardan unumli foydalinish uchun shart-sharoit yaratish – mini texnikalar, ish qurollari, ko'chat, urug' va boshqa narsalar olishi uchun turli tijorat bank-laridan imiyozli kreditlar olishida amaliy va huquqiy yordam ko'rsatdik. Natijada, ular o'zlarini uchun ajratilgan maydonlarga istagan ekinini ekip, mo'l hosil yetishtirish, uni ro'zg'origa ishlatish, ortganini bozorga olib chiqib sotish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

Boshqarmamiz rivojlantirish jamg'armasiga mablag' tushishga alohida e'tibor qarat-ganmiz. Bo'sh yotgan yerlarning qolgan qismini ijara berish, mavjud texnika va texnologiyalarimiz yordamida xizmat bajarib berishdan ancha-muncha daromad olyapmiz. Jamoamizning yordamchi xo'jaligida 70 boshga yaqn qoramol, 150 boshdan ziyod qo'yechki, 150 bosh tovuq bor. Yiliga 5-6 marta bir-ikkita yirik yoki to'rt beshta mayda shoxli molni so'yib, odamlarimizga tarqatamiz.

Yaqinda hisob-kitob qilib chiqdik: Jamoamizning har bir a'zosi o'zi bevosita bajaran vazifasidan tashqari, yuqorida aytigan manbalar hisobidan 1,5-2 million so'm qo'shimcha daromad olmoqda.

— Suv xo'jaligi vaziri yoshlar bilan uchrashuvda shu kabi mulohazalarimga e'tibor qaratdi, — dedi yakunda Arslon Mustaqov. — Eng muhim, Shavkat Hamroyev tashabbuslarimni qo'llab-quvvatladi, kerak bo'lsa, qo'lidan kelgan yordamni ko'rsatishga va'da berdi. Ana shu ishonch va e'tirof o'zimni ham, mehnat jamoamizni ham ruhlantirib, yanada barakali ishlashga undamoqda!..

Endigina 28 yoshti qarshilagan A.Mustaqov Jizzax viloyati suv xo'jaligi tizimining umidli yoshlaridan biri. Bitta misol: 2023-yilda “O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligi a'llochisi” ko'krak nishoniga sazovor bo'lganining o'ziyoq yosh rahbarning o'z yo'llini topib olgani, aniq maqsad sari intilayotganini tasdiqlab turibdi....

*Suhbatni o'z muxbirimiz  
X.KARIMOV  
yozib oldi.*

*Suratda: “O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligi a'llochisi” ko'krak nishoni sovrindori A.Mustaqov.*

## MODERNIZATSİYA – tejamkorlik omili

**2023-yil 29-noyabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev qishloq xo'jaligida suv resurslaridan oqilona foydalanish va yo'qotishlarni kamaytirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazgan videoselektor yig'ilishida ko'pgina dolzarb vazifalar qatori, yana bir muhim vazifa – suvni yetkazish xarajatlarini qisqartirish masalasiga alohida e'tibor qaratgan edi.**



**Samarqand viloyatidagi "O'zbekiston" nasos stansiyasi a'zolari.**



Qayd etilganidek, bugungi kunda klaster va fermerlarga yetkazib berilayotgan har 1 kub.m. suvgaga o'ttacha 212 so'm xarajat qilinayapti. Lekin Buxoro, Qashqadaryo va Namanganda bu 2-3 barobar qimmat. Shu bilan birga, suv xarajatining 63 foizi nasos stansiyalari hissasiga to'g'ri keladi. Xususan, sug'orish uchun yiliga 7 milliard kilovatt soat elektr energiyasi sarflanadi. Chunki suv nasoslarining 80 foizi eskirgan, energiya sarfi yuqori. Davlat rahbari bu xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirishning eng to'g'ri yo'lli – nasoslarni modernizatsiya qilish va ularni boshqarishni xususiy sheriklikka berish ekanini ta'kidlagan edi.

**Bu borada Samarqand viloyati tumanlarida Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi tasarrufidagi 15 ta nasos stansiyalarini modernizatsiya qilish rejalashtirilgan bo'lib, bu jarayonlar da nasos stansiyasida o'rnatilgan 77 dona nasos uskunalarini, elektr dvigatellarini, elektr xo'jaligi uskunalarini, gidromexanik uskunalar yangilanishi, nasos stansiyasi binosi, quvur tarmog'i ta'mirlanishi nazarda tutilgan. Bundan tashqari, elektr energiyasini iqtisod qilish maqsadida nasos stansiyalarining binolarida yoritish va maishiy texnikalarini elektr energiya bilan ta'minlovchi quyosh panelari o'rnatilishi ko'zda tutilgan. Shu orqali nasos stansiyalariga bog'langan 13 ming 665 hektar maydonidagi qishloq xo'jalik ekinlari suv ta'minoti yaxshilanishi kutilmoqda.**

Shuningdek, viloyatda faoliyat ko'rsatib kehayotgan nasos stansiyalarining aksariyati eski bo'lgani holda ularning suv chiqarish qobiliyatini yaxshilash va o'z vaqtida ta'mirlash maqsadida Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi tasarrufida Farhod qo'rg'onida va Kattaqo'rg'on shahrida gidromexanik uskunalarini ta'mirlash ustaxonalari ishlab turibdi. Mazkur ta'mirlash ustaxonalarida nasos uskunalarining mavsum davomida to'xtovsiz ishlashini ta'minlash maqsadida ta'mirlash-tiklash ishlari amalga oshirilmoqda. Shu maqsadda mazkur syexlarda barcha ehtiyoj qismlar va materiallar zaxirasi yaratilgan.

Ma'lumki, sug'orish tizimlarining nasos stansiyalari energiya iste'moli jihatidan katta bo'lgan ob'yeqtalardan biri hisoblanib, nasos agregatlarining energiya iste'moli tejamkorligini oshirish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada sug'orish tizimida o'ziga xos mehnat talab etadigan Navoiy viloyatida ham katta energiya sig'imli nasos stansiyalarini energiyatejamkor ish rejimlariga o'tkazish va suv ta'minotini yaxshilash maqsadida modernizatsiya qilish ishlari amalga oshirilmoqda. Bu borada joriy yildan boshlab, Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi xuzuridagi Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi tizimidagi 5 ta nasos stansiyalarini modernizatsiya qilish rejalashtirilgan va bu orqali hududdagi 15 ming 520 hektar maydonning suv ta'minoti yaxshilanishi kutilmoqda.

**Ayni kunlarda Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasiga qarashli 37 ta nasos stansiyalari hamda 232 ta sug'orish, 158 ta meliorativ va 87 ta yaylov suv ta'minoti tik quduqlari mavjud bo'lib, hozirda 545 nafar ishchi-xodimlar xizmat qilib kelmoqda. O'tgan 2023-yili boshqarmaga qarashli nasos stansiyalarida energiya tejamkorligini oshirish maqsadida yangi 6 ta nasos va 6 ta elektrodvigatellar, 2 dona reaktiv energiyani kompensatsiya-lovchi kondensator qurilmalari, boshqarma binosi va nasos stansiyasi binolariga jami 125 kWt bo'lgan quyosh elektr paneli hamda quyosh suv isitish qurilmasidan 2 dona o'rnatildi. Shu bilan birga, nasos stansiyalari yordamida chiqarib berilgan suvning hisobini yuritish maqsadida 41 dona onlayn suv o'lichash qurilmalari o'rnatilib, foydalanib kelinmoqda.**

Albatta, sohada amalga oshirilayotgan bu kabi ishlar pirovardida, biz uchun muhim resurs hisoblangan energiya sarfi qisqarib, suv ta'minoti borasida ham yangi ijobjiy ko'rsatkichlarga erishildi va natijada qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish ko'lami oshadi.

**Shuhrat NORMURODOV,**  
o'z muxbirimiz.

# 2024

*Yurtdoshlarimizni, barcha qishloq*

*xo'jaligi xodimlarini*

*Yangi yil bilan qutlaymiz.*

*2024-yilda yurtimiz tinch va obod,*

*turmushimiz yanada farovon,*

*dasturxonlarimiz to'kin-sochin*

*bo'tsin!*

**"Sirdaryosuvqurilishinvest" DM**

*jamoasi*



## "ZARBDOR YIL" LIKNING ZALVORLI VAZIFASI

**Ma'lumki, 2023-yilning 29-noyabrida davlatimiz rahbari raisligida qishloq xo'jaligida suv resurslaridan oqilonan foydalanish va yo'qotishlarni kamaytirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida suvni tejash bo'yicha birinchi galdag'i vazifa sifatida kanal va ariqlarni betonlash ishlarni tashkil etish belgilangan edi.**

Ushbu topshiriq ijrosi doira-sida Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida ham ichki ariqlarni betonlash ishlari qizg'in davom etmoqda. Jumladan, tumanda 2024 yilda 22 km ichki sug'orish tarmoqlarini betonlashtirish rejalashtirilgan bo'lib, hozirda tumanning Jo'yrabod hududidagi "Savlat" ichki sug'orish tarmoqlaridi betonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.



**Suratda:** Shofirkon tuman irrigatsiya bo'limi boshlig'i Feruz Aminov, bo'lim xodimi Faxriddin Dehqonov bilan

**" - Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan betonlashtirish ishlarnimiz yakuniga yetishi bilan tuproq o'zanli ariqlardagi ortiqcha suv yo'qotilishi oldi olinadi va hududdagi 1000 getktarga yaqin maydonga suv yetkazib berish holati yaxshilanadi, -deydi Shofirkon tuman irrigatsiya bo'limi boshlig'i Feruz Aminov. "**

Shuningdek, suv sarfini kamaytirishga mo'ljallangan yig'ilishda yana bir muhim vazifa- suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, shu maqsadga ko'ra klaster va fermerlarga suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish uchun ikki yillik imtiyozli davr bilan besh yilga 14 foizli kredit ajratish belgilangan edi. Bu borada ham bank bilan, ham ta'minotchilar bilan shartnoma elektron platforma orqali onlayn imzolanishi belgilab qo'yildi. Bu esa, loyihalarni joriy etuvchi ko'pgina fermerlar uchun yangi imkoniyatlar taqdim etmoqda. Kogon tumanidagi fermer Erkin Sharipov ham 2021 yili 16 hektar paxta maydoniga tomchilatib sug'orish tizimini joriy etgan edi. Endilikda amaliyotga qo'llaniladigan yangi imkoniyatlardan ihmolanigan fermer, joriy yilda yanada kengroq ekin maydonlariga suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish niyatida.

**" - Ekin maydonlarimizda tomchilatib sug'orish texnologiyasi joriy etilishi bilan suv resurslari sezilarli darajada iqtisod qilinib, xo'jaligimiz yaxshigina daromadini oshirishga ham erishdi. Oldinlari jo'yaklab sug'orish uchun ikki-uch nafar suvchi ovora bo'lgan bo'sla,**

*tomchilatib sug'orilganda, bu ishni bir kishi bemalol uddalamoqda. Shu qatorda mineral o'g'itlarning suv orqali yuborilishi ham ishchi kuchi, ozuqa va vaqtini tejash imkonini bermoqda. Joriy yildan boshlab, suv tejovchi texnologiyalar amalga oshiradigan fermerlarga yaratiladigan yangi imkoniyatlar bizni yangi tashabbuslar qo'llashga undamoqda, - deydi fermer Erkin Sharipov*



**Suratda:** Kogon tumanidagi fermer Erkin Sharipov (surat 2023 yil yoz faslidagi olingan)

Muxtasar qilib aytganda, bu kabi tashabbuslardan ko'zlangan eng katta maqsad, tobo-ra dolzarb masalaga aylanib borayotgan suv tanqisligining oldini olish va shu qatorda hosil-dorlikni oshirishdan iborat.

**O'z muxbirimiz.**

## BUGUNGI AMAL -

## KELGUSI HOSILGA TAMAL

**M**a'lumki, don — xalqimiz rizq-ro'zi, farovonligimiz omili sanaladi. O'zbek dasturxonining bosh bezagi ham non hisoblanadi. Shu bois, ayni kunlarda hamma joyda don yetishtirish, g'alla maydonlarini oziqlantirish, bu boradagi agrotexnik tadbirlarni kechiktirmay olib borishga katta e'tibor qaratilgan.

2024 yil hosili uchun Samarqand viloyatining Samarqand tumanida g'alla ekish tadbirlari dastlab g'alla maydonlarini ekishga mukammal tayyorlashdan boshlandi. Bugun ana shu tadbirlar mevasi o'laroq tumanning ko'm-ko'k maysalagan g'alla parvarishini barcha agrotexnika qoidalariga rioya qilgan holda olib borayotgan ilg'or hududlaridan "Konigil"da ham boshoqli don ekinlari parvarishi obi tobida olib borilmogda.



Suratda: Samarcand tumanidagi "Konigil" hududi g'allakorlari

- Hududimizda avvalgi yillar tajribasidan kelib chiqqan holda, 238 hektar maydonda unib chiqqan g'allani peshma-pesh sug'orish uchun dastlab sug'orish shtabi va otryadlar faoliyat olib bordi. Shuningdek, tumanimiz irrigatsiya bo'limi tashabbusi bilan suv tanqisligini yumshatish, suvning isrof bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun ariqlarni tozalash, betonlashtirish ishlarini ham olib bormoqdamiz, - deydi "Konigil" hududi rahbari Mardon Abbosov.

Albatta, non o'zbekning dasturxoni ko'rki bo'lgani holda uning xomashyosi hisoblangan don yetishtirish mirishkorlarimizning har doimgidek sabotli vazifasi bo'lib kelmoqda.

Bulung'ur tumani mirishkorlari ham 2024-yil hosili uchun ekilgan g'allani parvarishlash, qishlov mavsumiga xos tegishli agrotexnik tadbirlarni olib borishmoqda.



Suratda: (chapdan) Bulung'ur tumani fermerlari Sunnat Misirov va Zayniddin Shokirovlari.

- Ayni kunlarda xo'jaligimiz a'zolari bilan birgalikda asosiy e'tiborimizni ekilgan g'allani baravj o'stirib olishga qaratganimiz, - deydi, tumandagi "Aliya opa" fermer xo'jaligi rahbari Sunnat Misirov. - O'tgan yili g'alladan 70 sentnerdan hosil olgan bo'lsak, bu yil 80 syentnerga oshirishni niyat qilganmiz. Maqsadimiz, rejalarimiz ko'p, shulardan eng muhimi suv tanqisligining oldini olish borasida g'alla maydonlarimizga yomg'irlatib sug'orish tizimini joriy etishni ko'zlab turibmiz.

Albatta, bulung'urlik fermerlar rejalashtirayotgan bu amallar hududda suv tanqisligini yumsatish, hosildorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Albatta, dasturxonlarimiz to'kinligi, non degan aziz ne'matning mol bo'lishida o'z hissasini qo'shayotgan mirishkor bobodehqonlarimizning omilkorlik bilan qilayotgan bugungi mehnatlari ertaga o'z samarasini beradi va yorug'yuz bilan yuqori hosildorlikka erishadi, deb umid qilamiz.

O'z muxbirimiz.

**M**amlakatimizda chorvachilik sohasi rivojlanishi barobarida, yondosh tarmoqlarda ham yangi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar – yilqichilik, tuyachilik, quyonchilik, parrandachilik xo'jaliklari tashkil etilmogda. Pirovard natijada oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada oshyapti. Albatta, bu kabi ishlarda veterinariya xizmatining o'rni katta.



# VETERINARLAR

## – chorvadorlar xizmatida

Nurobod tumanida bugungi kunda 60 ming boshga yaqin qoramol, 550 ming boshdan ortiq mayda shoxli mollar mavjud bo'lib, ularga tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi mutaxassislari xizmat ko'rsatib kelmoqda. Tumanda qoramol naslini yaxshilash, ularning sonini oshirish bo'yicha tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limiga qarashli 23 ta veterinariya shoxobchasi hamda sun'iy urug'lantirish punktlaridagi veterinariya mutaxassislari va texnik osseminatorlar xizmat ko'rsatib kelmoqda.

“

— Tumanimizda viloyat veterinariya boshqarmasi tomonidan epizootik tadbirlarning rejasiga ko'ra, tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limidagi 23 nafar veterinar tomonidan tegishli vazifalar oyma-oy bajarilib borilyapti. Bugungi yana bir muhim vazifamiz chorva bosh sonini ko'paytirish, mavjud qoramollar naslini yaxshilashdan iborat. Bu borada esa aholi va fermer xo'jaliklari

hisobidagi sigirlarni sun'iy urug'lantirishga mo'ljallangan barcha mahsus vositalar bilan jihozlangan uchastkalarimiz faoliyat ko'rsatib kelyapti. Maqsadimiz hududda qisqa muddatda chorva mahsulotlarni ko'paytirish hamda naslini yaxshilashga erishish, — deydi tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi boshlig'i Yusuf Ro'ziyev.

”

Albatta, bu kabi xatti-harakatlar va shu asnoda bajarib kelinayotgan chora-tadbirlar bozorlarimizda chorva mahsulotlari arzonligini ta'milashga ma'lum miqdorda hissa bo'lib qo'shiladi. Tumanda chorva naslini yaxshilabgina qolmay, go'sht va sut mahsulotlarini ko'payishiga va, shu bilan birga, hudud iqtisodiyoti barqarorligiga xizmat qiladi.

O'z muxbirimiz.

*Suratda: Nurobod tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi jamoasi.*

# QORAKO'LCHILIKDA KLASTER TIZIMI

**M**amlakatimizda qorako'lchilik tarmog'ida iqtisodiy islohotlarni chugurlashtirish orqali naslchilik ishlarini takomillashtirish, sifatli qorako'l teri yetish-tirish, cho'l-ozuqabop ekinlar maydonlarini kengaytirish va yaylovlar hosildorligini oshirish borasida ko'plab ijobji ishlar amalga oshirib kelinmoqda.



*Suratda: chapdan "Ko'kcha" MCHJ rahbari Olim Nazarov, viloyat Qorako'lchilik boshqarmasi boshlig'i Faxriddin Qudratov, MCHJ zooinjeneri Ravshan Toxirovlar.*

Ma'lumki, ushbu tarmoqni rivojlantirish orqali markazdan olisda joylashgan hududlarda yashovchi aholini muqim ish o'rnlari bilan ta'minlash, bozorlarga arzon va sifatli go'sht mahsulotlari yetkazish, bejirim, sifatli qorako'l terilarni xorij davlatlariga eksport qilish imkoniyati yanada ortadi.

Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi "Ko'kcha" MCHJ klasteri a'zolari ham bugun qorako'lchilikni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida fidokorona mehnat qilishmoqda. Istiqbolli loyihalarini amalga oshirishga bel bog'lagan MCHJda bugun jami 13 ming 60 bosh mayda shoxli mol bor. Hududdagi mavjud qorako'lchilik-naslchilik sub'yektlarini o'z tarkibiga olgan va kooperatsiya tizimida faoliyat olib borayotgan MCHJda bo'rdoqchilik va qorako'lchilik ishlab chiqarish kompleksi, granulali omuxta yem ishlab chiqarish hamda junni qayta ishlash syexlari ishga tushdi.

Natijada jamiatdak yiliga 190 tonna go'sht, 29 tonna jun, 21 tonna ip-kalava, 2 ming 670 ta qorako'l teri ishlab chiqarilayapti. Albatta, sohaga yo'naltirilayotgan bu kabi loyihalar tumanda chorva soni va qorako'lchilik mahsulotlari or-tishiga xizmat qilmoqda. Ayni kunlarda mazkur MCHJ a'zolari 2023-2024 yil qishlov davrini muvaffaqiyatl o'tkazish va mayda shoxli mollarni

qishli-qirovli kunlardan betalofat olib chiqish maqsadida matonat bilan mehnat qilishmoqda. Mavsum oldidan joylarda 1 ming 750 tonna xashak jamg'arildi.

— Oldimizda sinovli damlar, qishlov mavsumi turibdi. Ushbu damlarda chorvani yetarlicha sifatli ozuqa bilan ta'minlash doim dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Shu maqsadda jamiyatimiz qoshida omuxta yem ishlab chiqarish syexini tashkil etganmiz va shu orqali o'zimizning chorvamizni hamda tumandagi boshqa chorvachilik sube'ktlarini sifatli ozuqa bilan ta'minlash imkoni paydo bo'ldi, — deydi "Ko'kcha" MCHJ klasteri rahbari Olim Nazarov.

Bugun xo'jalikda qorako'lchilik borasida to'plangan tajriba sohaning yangi istiqbollari mezoni bo'lib xizmat qilmoqda. Albatta, bu omil tumanda chorva bosh sonining ko'payishiga va qorako'lchilik mahsulotlari turlari bo'yicha eksport hajmi ortishiga, pirovardida aholi va davlat daromadlari oshishiga xizmat qiladi.

O'z muxbirimiz.

# NASLLI CHORVA – BARAKA MANBAI

Bugungi kunda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash dunyo mamlakatlari uchun eng dolzarb masalaga aylangan. Yurtimizda so'nggi yillarda qishloq xo'jaligi sohasida muhim bo'g'in hisoblangan chorvachilik yo'nalishini kengaytirishga, naschlilik ishlarini yaxshilashga qaratilgan izchil chora-tadbirlar o'zining samarasini bera boshladi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash yo'lida, eng avvalo, mahsulotlar ishlab chiqarish miqdorini oshirish, bu borada yangi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar, ya'ni yangidan yangi loyihibar ishga tushirishni taqozo etadi.

Chiroqchi tumanidagi "Bekmurodov Jomurod" fermer xo'jaligi 2019 yilda ana shunday maqsadda tashkil etilgan bo'lib, xo'jalikda paxta, g'alla bilan bir qatorda go'sht, sutchilik tarmog'ini rivojlantirish orqali xalqimiz dasturxonini parhez mahsulotlar bilan to'ldirishda va tuman iqtisodiyotining yuksalishida muhim omil bo'layotir.



*Suratda: "Bekmurodov Jomurod" fermer xo'jaligi rahbari Furqat Muhammadiyev tuman veterinariya bo'limi xodimi Javohir Murtozoyev bilan*

— Prezidentimiz tomonidan 2021 yil 3 mart kuni "Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida taqdim etilgan imtiyozlar haqida e'tirof etmay ilojimiz yo'q. Ushbu qarorga asosan, chorvachilik xo'jaliklariga o'z xo'jaliklarida

**yetishtirilgan go'sht uchun subsidiya to'lab berilishi va boshqa imtiyozlar biz kabi tadbirkorlarga katta imkon yaratib berdi. — deydi fermer xo'jaligi rahbari Furqat Muhammadiyev.**



*Suratda: "Yetti yulduz chorvadori" MCHJ rahbari H.O'rozov, veterinar J.Murtozoyev bilan*

Tumandagi yana bir "Yetti yulduz chorvadori" fermer xo'jaligida ham ayni kunlarda xorijdan keltirilgan 55 bosh naslii mol parvarishlanmoqda.

— Xorijdan naslli qoramol olib keluvchilarga taqdim etilayotgan subsidiya mablag'lari bizga ancha yengilliklar yaratmoqda. Ushbu imtiyozlardan foydalaniib, kelgusida yana xorijdan qoramol olib kelishni, shu bilan besh nafar qishloq yoshlarining bandligini ta'minlashni rejalashtirib turibmiz, — deydi fermer xo'jaligi rahbari Holiyor O'rozov.



Yaratilayotgan imkoniyatlar, berilayotgan imtiozlar tarmoq rivojiga omil bo'lish barobarida, fermerlarga ishonch va shiojat bag'ishlamoqda.

Samarqand viloyati Narpay tumanida loyihalar asosida xorijdan naslli chorva keltirilishi, ko'paytilishi hududda chorva naslini yaxshilabgina qolmay, go'sht va sut mahsulotlarining ko'payishiga ham xizmat qilmoqda. Tumandagi "Narpay Nozimjon" fermer xo'jaligida ham ayni damda 70 bosh naslli qoramol parvarishlanmoqda.



**Suratda: "Narpay Nozimjon" fermer xo'jaligi rahbari Nodir Tog'ayev tuman veterinariya bo'limi xodimi Uchqun Abdullayev bilan**

— Keyingi yillarda chiqari-layotgan yangi qarorlar, berilayotgan imtiozlar bizga xarajatlarimizni iqtisod qilishga va qo'shimcha tarmoqlar yaratish orqali yangi ish o'rinnari tashkil etishimizga imkon beradi. Chorvachilik xo'jaliklariga o'z xo'jaliklarida yetishtirilgan sutning har bir litri uchun beriladigan subsidiyalar bizning ravnaq topishimizga kattadan-katta sharoitlar yaratmoqda, — deydi fermer xo'jaligi rahbari Nodir Tog'ayev.

Albatta, agrar soha yetakchi tarmoqlarining istiqboli uchun amalga oshirilayotgan bu kabi chora-tadbirlar pirovardida bozorlarda chorva mahsulotlari – sut, go'sht, yog' serobligini va arzonligini ta'minlab, aholi dasturxoniga fayzbaraka kiritishda muhim omil bo'ladi.

**Shuhrat NORMURODOV.**  
o'z muxbirimiz.

## ZOMIN ILMIY-TAJRIBA STANSIYASI TASHKIL ETILADI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiytadqiqot instituti faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida" qaror qabul qildi.

Unga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi hamda Jizzax viloyati hokimligining Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tizimidagi Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutining Zomin ilmiy-tajriba stansiyasi tashkil etiladi.

### Ilmiy-tajriba stansiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarining mahalliy tuproq-iqlim sharoitlariga mos, serhosil, kasallik va zararkunandalarga chidamlı hamda sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan nav va duragaylarini yaratish;
- sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarining birlamchi urug'chiligini tashkil etish bo'yicha ilmiytadqiqot ishlarini rivojlantirish;
- sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarini yetishtirishning zamonaviy resurs tejaydigan texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
- ilg'or xorijiy tajribalarni qo'llagan holda sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarini yetishtirish va ularning hosildorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish;
- sabzavot, poliz va kartoshkachilik sohasida ilmiy xodimlarni tayyorlash, sohada faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish.

Ilmiy-tajriba stansiyasi yuridik shaxs maqomiga ega davlat muassasasi hisoblanadi va faoliyati Institut tomonidan muvofiqlashtirilib boriladi.

# EMBRIONLARNI KO'CHIRIB O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI JORIY ETILMOQDA

Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti 2015 yildan buyon Janubiy Koreyaning "KOPIA" markazi bilan hamkorlik qilib keladi. Koreyalik hamkorlar bilan birgalikda biotexnologiyaning ilg'or usullarini qo'llagan holda bir qator yangi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar o'tkazilib kelinmoqda. Keyingi yillarda olib borilgan hamkorligimiz natijasida chorva mollari naslini yaxshilash maqsadida biotexnologiyaning ilg'or usullaridan bo'l mish embrionlarni ko'chirib o'tkazish texnologiyasini ilg'or fermer xo'jaliklarida amalga oshirish imkoniyati yaratildi.

Embrion transplantatsiyasi hayvonlar naslini bir necha avlodlarda yaxshilash maqsadida seleksiya ishlarini jadallashtiradigan bioteknologik usul hisoblanadi. U birinchi marta 1890 yilda Valter Xeap tomonidan quyonlarda amalga oshirilgan. 1930-yilda qo'y va echkilarda, 1950-yilda esa Angliyaning Kembridj shahrida Jim Rauson tomonidan qoramollarda amalga oshirilgan.

Embrionlarni ko'chirib o'tkazish texnologiyasi asosida qisqa muddatda sermahsul sigirlar podasini yaratish mumkin.

Institut rahbariyatining tashabbusiga asosan "Kopia" markazining moliyaviy yordami va "Fas Trade" MCHJ shaklidagi kompaniya ko'magida ilmiy tadqiqotlar uchun AQSH va Koreya Respublikasidan mashhur naslli buqalarning avlodni bo'lgan yuqori mahsuldor donor sigirlarning embrionlari olib kelindi. Ushbu embrionlar republikamizga havo transportida maxsus "Dyuar" idishlarida yetkazib berildi.

**Ma'lumki, Janubiy Koreya dunyoda sigirlardan sut sog'iб olish bo'yicha ilg'or to'rt davlatdan biri hisoblanadi. Bu davlatda har bir sigirdan yiliga o'rtacha 10500 kg dan ko'п sut sog'iб olinadi. Koreyada embrionlarni ko'chirib o'tkazish bo'yicha zamonaviy laboratoriylar mavjud. Koreyalik hamkorlarimiz ana shunday zamonaviy laboratoriyalarni bizning institutimizda ham tashkil etishda amaliy yordam berishmoqchi.**

2023-yilning 19-20-oktabr kunlari institutda Koreyaning "KOPIA" markazi bilan hamkorlikda

chorvachilikda bioteknologiya usullarini joriy etishga bag'ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy seminar tashkil etildi.

Seminarda Janubiy Koreya, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston respublikalaridan mutasaddi olimlar va mutaxassislar ishtiroy etishdi.



Anjumanda bioteknologiyaning ilg'or usulidan bo'lgan embrionlarni ko'chirib o'tkazish texnologiyasini joriy etish nazariyasi institutda tushuntirilgan bo'sha, seminarning amaliy qismi Toshkent viloyatining naslchilik xo'jaligida amalda ko'rsatib berildi.

Jumladan, sentyabr-oktyabr oylarida Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumanidagi Kim Pen Xva nomli naslchilik qoramolchilik xo'jaligidagi AQSHdan va Chinoz tumanidagi "Dil giyo fayz baraka" naslchilik xo'jaligida esa Koreyadan keltirilgan embrionlar resepiyent urg'ochi tanalar va sigirlarga ko'chirib o'tkazildi.



Embrionlarni ko'chirib o'tkazish amaliyoti AQSHdan keltirilgan maxsus asbob va uskunlar yordamida amalga oshirildi.

**Embrion ko'chirib o'tkazilganidan keyin 40-kuni resipyent tanalar UTT apparati yordamida bo'g'ozlikka tekshirildi. Unda embrion ko'chirib o'tkazilgan 12 bosh tanadan 4 tasi yoki 33,3% ning bo'g'ozligi aniqlandi. Ikkinci ota-onas juftligida esa bu ko'satakich 60 % ni tashkil etdi. Bu holat ko'chirib o'tkazilgan embrionlarning yashab qolish darajasi ota-onas juftligiga va resipyent mollar sifatiga qarab har xil bo'lishidan dalolat beradi.**

Embrion ko'chirib o'tkazish uchun donor sigirlar sifatida respublikamizga chetdan keltirilayotgan naslli sigirlardan, shuningdek, mahalliy zotdagi sigirlardan ham foydalinish mumkin.



Embrionlarni ko'chirib o'tkazishning quydagi afzalliklari bor:

Yuqori irlsiy salohiyatga va mahsulorlikka ega mollarning embrionini ko'chirib o'tkazish orqali uch yilda yuqori mahsulor sigirlar podasini yaratish mumkin.

Chetdan embrion olib kelish naslli mol olib kelishdan iqtisodiy jihatdan arzon va veterinariya nuqtai nazardan xavfsiz.

Ko'chirib o'tkazilgan embrionlardan sog'lom buzoq olish foizi 60-70 foizni tashkil etsa-da, unga ketgan xarajatlar sigirning birinchi laktatsiyanasidagi suti bilan qoplanadi.

Chetdan naslli mol olib keltirishda epizootik xavfsizlik, ya'ni o'z vaqtida aniqlash qiyin bo'lgan yuqumli kasalliklardan saqlanish muammosi

yanada ortadi. Masalan, xlamedioz, virusli rinotraxit va blyutanga kabi yuqumli kasalliklarni tarqalishi xavfi bor. Embrion ko'chirib o'tkazishda esa bu muammoga duch kelinmaydi. Chunki embrion o'z po'st qavatidan chiqquncha va ona mol bachadoniga yopishib olguncha steril hisoblanadi. Shuning uchun Veterinariya xavfsizligi nuqtai nazardan ham embrion transferi xavfsiz texnologiyadir.

Chetdan naslli mollar import qilib olib kelinganda ularni mahalliy iqlim sharoitimidza va xo'jaliklarning oziqlantirish va saqlash sharoitlariga moslashtirish, ya'ni adaptatsiya qilish ko'pgina zooveterinariya va sanitariya tadbirlarini o'tkazishni talab etadi. Embrion import qilib olib kelinganda esa u o'zimizning mollarimizga ko'chirib o'tkazilgani uchun bu muammolarga duch kelinmaydi.

Xo'jaliklarda sun'iy urug'lantirish uchun foydalanilayotgan urug'lar bilan qarindosh bo'lgan molarni bir-biri bilan sun'iy urug'lantirib qo'ymaslik, ya'ni inbridingga yo'l qo'ymaslik uchun urug'larni har ikki-uch yilda almashtirib turish talab etiladi. Embrion ko'chirib o'tkazish texnologiyasi qo'llanilganda bunday muammolar yuzaga kelmaydi.

Amalda normal sigirdan uning hayoti davomida 5-6 bosh buzoq olish mumkin. Embrion ko'chirib o'tkazish texnologiyasida esa bir bosh sigir dan bundan 10 barobar ko'p buzoq olsa bo'ladi.

Embrionlarni ko'chirib o'tkazish texnologiyasini nafaqat sut qoramolchiligidan, balki go'sht qoramolchiligidan ham qo'llash va ijobiy natija olish mumkin.

Embrionlarni ko'chirib o'tkazishga yana bir xo'jalik - Yuqorichirchiq tumanidagi "Farodis xirmoni" naschlilik xo'jaligi ham tayyorlanmoqda.

O'ylaymizki, ilg'or fermerlarimiz biotexnologiyaning ushbu usuliga ham qiziqish bildirishadi va chetdan embrion olib kelib qisqa muddatlarda sermahsul poda yaratishdek ulug' ishga hissa qo'shishadi. Biz olimlar fermerlarga bu borada amaliy yordam berishga doimo tayyormiz.

**A'zamjon NURMATOV, q.x.f.n.,**

**Husanjon G'IYOSOV, q.x.f.n.,**

**Anvarjon XOLMATOV, q.x.f.n.,**

Chorvachilik va parrandachilik  
ilmiy-tadqiqot instituti.

## ВЛИЯНИЕ ПОСЕВНОГО КАЧЕСТВА СЕМЯН НА УРОЖАЙНОСТЬ КУКУРУЗЫ

**Аннотация.** Мақолада маккаждыори уруғларини тайёрлашда ҳосил бўладиган техник ёришиларни уруғликларни унувчанилиги ва ҳосилдорликка таъсири ўрганилган ва бартараф этиши йўллари келтирилган.

**Калит сўзлар:** микро ёриклар, эндосперма, тайёрлаш, саралаш, унувчаник, кореляция, уруғлик захира.

Тажрибалардаги тойларда озуқа сарфи турли ёш даврларида турлича бўлиб, тойлар дастлаб 6-12 ойлик даврида кўшимча озиқлантирилган. Ушбу даврда I ва II тажриба гуруҳларига турли миқдорда биологик фаол кўшимчалар қўшиб берилган. Бу эса озуқа сарфидаги асосий фарқ бўлиб ҳисобланади.

Тойларга 6-12 ойлик ёш даврида сарфланган озуқа миқдори тўғрисидаги маълумотлар куйидаги 2-жадвалда келтирилган.

2-жадвал.

#### Тойларни 6-12 ойлик ёшида озуқа сарфи, 1 бошга

Кўрсаткичлар	Назорат гурухи n=8	I тажриба гурухи n=8	II тажриба гурухи n=8
Беда пичани, кг	1170	1170	1170
Сули (ёрмаси), кг	360	360	360
Буғдой кепаги, кг	90	90	90
Ош тузи, кг	3,24	3,24	3,24
Биологик фаол кўшимча, кг	-	36,0	54,0

Жадвал маълумотларидан кўриниб турибдики, беда пичани, сули, буғдой кепаги ва ош тузи бўйича сарфланган озуқалар миқдори барча гуруҳларда бир хил бўлган. Фақатгина I ва II тажриба гуруҳларида тойлар рационига биологик фаол кўшимчалар берилди. Биологик фаол кўшимча 6-12 ойлик даврда тойларнинг ўсиш ва ривожланиш хусусиятларига ижобий таъсир этувчи энг мақбул миқдорини аниқлаш мақсадида турлича миқдорда берилган, яъни I ва II тажриба гуруҳларига мос равища 36,0 ва 54,0 кг миқдорда берилди.

Тажрибаларимиз давомида 6-12 ойлик ёшдаги тойларнинг мутлақ, кунлик ҳамда нисбий ўсиш кўрсаткичларин таҳлил қилиниб, олинган натижалар куйидаги 3-жадвалда келтирилган.

3-жадвалдан кўриниб турибдики, барча кўрсаткичлар бўйича гуруҳлараро фарқлар мавжуд. Шу билан биргаликда, рационига турли миқдорда биологик фаол кўшимчалар кўшилган тажриба гуруҳларида ҳам ўзаро фарқлар юзага келди. Мутлақ ўсиш кўрсаткичи бўйича олинган маълумотларга қараганда II тажриба гуруҳи юқори натижаларга эришиб, ушбу кўрсаткич бўйича назорат ҳамда I тажриба гуруҳига нисбатан тегишлича 27,1 ва 12,0 кг устун бўлди. Кунлик ўсиш кўрсаткичлари граммларда ифодаланиб, II

тажриба гурухининг устунлиги кўзга ташланди. Аниқланган устунлик тегишли равища 151 ва 67 г. ни ташкил қилди. Тажриба гуруҳлари орасидаги фарқ 67 г. ни ташкил қилди.

3-жадвал.

#### Тойларнинг 6-12 ойликдаги мутлақ, кунлик ва нисбий ўсиш кўрсаткичлари

Т/р	Кўрсаткичлар	Гурухлар		
		Назорат n=8	I тажриба n=8	II тажриба n=8
1	Мутлақ ўсиш, кг	44,7	59,8	71,8
2	Кунлик ўсиш, г	248	332	399
3	Нисбий ўсиш, %	29,8	40,1	48,8

Нисбий ўсиш кўрсаткичлари шуни кўрсатадики, II тажриба гуруҳи тойлари тенгдошларидан мос равища 19,0 ва 8,7 фоиз юқори кўрсаткичларга эга бўлди. Шу билан бирга, биологик фаол кўшимчалар миқдори ҳам нисбий ўсиш кўрсаткичларига таъсир кўрсатди.

Шундай қилиб, 6-12 ойлик ёшдаги тойларнинг мутлақ, кунлик ва нисбий ўсиш кўрсаткичларига биологик фаол кўшимчалар ижобий таъсир кўрсатиб, тойлар организмида метаболитик жараёнларнинг жадаллашганлигини намоён қилди.

Олинган маълумотлар шундан далолат берадики, тойлар рационининг маҳаллий хомашёдан тайёрланган минералли ва витаминыли биологик фаол кўшимчалар билан бойитиш, улар организмида кечётган модда алмашинувига ижобий таъсир қилиб тойларнинг ўсиш ва ривожланишини жадаллаштиради.

Қоннинг биокимёвий таркибини тахлил қилиш шуни кўрсатадики, рационда биоқўшимча бўлган II-тажриба гуруҳ тойлари қонида ўртача 203,66 г/л гемоглобин бўлган бўлса, назорат гуруҳидаги тойларда 115,66 г/л ва I -тажриба гуруҳидаги тойларда 182 г/л-га тенг бўлди. Эритроцитлар бўйича ҳам назорат гуруҳида ўртача  $6,4 \cdot 10^{12}/\text{л}$  бўлган бўлса, I-тажриба гуруҳида  $6,5 \cdot 10^{12}/\text{л}$  ва II-тажриба гуруҳи тойларида  $70,3 \cdot 10^{12}/\text{л}$  га тенг бўлди. Биологик фаол кўшимчаларнинг кўшиб берилиши қон таркибида ҳам ижобий ўзгаришларга олиб келди.

**Хуласа.** Тойлар рационига маҳаллий хомашёлардан тайёрланган биологик фаол кўшимчаларни киритиш тойларнинг ўсиш ривожланишига ижобий таъсир этади.

Тойлар рационига қўшилган биологик фаол кўшимчаларнинг улар организмига



таъсири ижобий эканлиги ўсиш ва ривожланиш кўрсаткичларида кўриниб турибди. Шундай бўлса-да, биологик фаол кўшимчалар миқдорининг аҳамияти ҳам кўзга ташланади, яъни тойларнинг 6-12 ойлик даври мобайнида рационга 200-300 г биологик фаол кўшимчалар кўшилган II тажриба гурухи тойлари I тажриба гурухи тойларидан устун кўрсаткичларни қайд

этди. Бу тойлар рационига биологик фаол кўшимчаларни қўшиш орқали уларнинг организмида моддалар алмашинувини яхшилаш ҳамда шу орқали тойларнинг ўсиш ва ривожланиш хусусиятларини ижобий томонга ўзгартирис мумкин эканлигидан далолат беради.

**Шермат ЖАББОРОВ,**  
к.х.ф.д (Phd) ЧПТИИ.

### АДАБИЁТЛАР

1. Бўрибоев Ш.М. “Швиц зотли буқачаларнинг ўсиши, ривожланиши ҳамда гўшт маҳсулдорлигига маҳаллий каолин ва бентонитли гилларининг таъсири”. Автореферат канд. ил. иши. 20 б.
2. Нурматов А.А. “Рост, развитие и мясная продуктивность молодняка карабаирской породы лошадей при различных условиях содержания”. Автореферат канд. дисс. Ташкент, 2004, с. 20.
3. Юнусов Б.Ю., Халилов М.Т. Табиий шарбат ва вино ишлаб чиқариш чиқиндиларидан пектин ажратиб олишнинг ўзига хослиги. Международная конференция «Актуальные проблемы химии и физики полимеров». Сборник тезисов и докладов. Ташкент 2006, с. 189-190.

UO'T: 631.63

TADQIQOT

## TOVAR BALIQLARINI YETISHTIRISHDA MAYATNIKLI OZIQLANTIRGICHNI QO'LLASH AFZALLIKLARI

*Annotatsiya. Bizga ma'lumki ilgari 1 gektarga 10-20 joyda ozuqa tarqatish tavsiya etilgan bo'lsa, endi 2-15 hektarlik hovuzning bir joyida turib ozuqani butun maydonga tarqatish samarali bo'lmoqda. Bu vazifani amalga oshirishda mayatnikli ozigantirgichlardan foydalanilmoqda.*

*Kalit so'zlar: oziq-ovqat xavfsizligini, ulushi izchil, yem, tannarxlari, hovuzlar, ko'llar; Mayatnik tebranganda, granulalangan ozuqalar, himoyalovchi g'ilof.*

*Аннотация. Как мы знаем, раньше рекомендовалось раздавать корм в 10-20 мест на гектар, но теперь эффективно раздавать корм на всю площадь, стоя в одном месте пруда площадью 2-15 га. Для этой задачи используются маятниковые кормушки.*

**Ключевые слова:** безопасность пищевых продуктов, постоянство пропорций, корм, затраты, пруды, озера, качание маятника, гранулированный корм, защитный кожух.

*Annotation. As we know, previously it was recommended to distribute food in 10-20 places per hectare, but now it is effective to distribute food over the entire area, standing in one place of a pond with an area of 2-15 hectares. Pendulum feeders are used for this task.*

**Key words:** food safety, consistency of proportions, feed, costs, ponds, lakes, pendulum swing, pelleted feed, protective cover.

**Kirish.** Baliqchilik tarmog'i oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Keyingi vaqtarda ko'rileyotgan chora-tadbirlar tufayli, Respublika iqtisodiyotining tarkibida baliqchilik ulushi izchil ortib bormoqda. Bunga Respublikada baliqchilik tarmog'ini jadal rivojlantirish, zamonaviy va innovatsion uslublarini joriy etgan holda baliq mahsulotlari ishlab chiqarishning hajmlarini yanada oshirish sohani rivojlantirish bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirilayotganini ko'rishimiz mumkin [1].

Tovar baliqchilikni samarali rivojlantirishning


asosiy omillaridan biri baliq boqish jarayonidir. Shu bilan birga, baliq yetishtirish tannarxlari tarkibida yem umumiyligi xarakatlarning 50% ga yaqinini tashkil etishi ham barchaga ma'lum. O'zbekistonda baliqlar asosan tabiiy va sun'iy ravishda hosil qilingan 1-2 gektarlik hovuzlarda va 5 gektargacha bo'lgan suv havzalari va ko'llarda, qafaslarda yoki erkin holda yayratib boqilmoqda. Baliq boqilayotgan hovuzlar, ko'llar va suv havzalarida tabiiy ozuqalar yetarli bo'limganligi sababli baliqlarga qoshimcha ozuqalar, jumladan granulalangan ozuqalar, donlar maydalangan ko'k o'tlar, berib boqiladi. Suv





havzalarining birlik maydoniga to'g'ri keladigan oziqlanish joylarining maqbul soni va ozuqa miqdorini o'rganishlarga ko'ra so'nggi yillarda oziqlantirish jarayonini avtomatlashtirish istiqbolli bo'lib bormoqda. Bizga ma'lumki ilgari 1 gektarga 10-20 joyda ozuqa tarqatish tavsija etilgan bo'lsa, endi 2-15 hektarlik hovuzning bir joyida turib ozuqani butun maydonga tarqatish samarali bo'lmoqda. Bu vazifani amalga oshirishda mayatnikli oziqlantirgichlardan foydalanimoqda [1].

**Tadqiqot materiallari.** Shunday oziqlantirgichlardan biri «Refleks T-1-50» qurilmasidir (1-rasm). Bu yerda birinchi raqam mayatniklar sonini, ikkinchi raqam esa bunker sig'imini bildiradi. Oziqlantirgich qurilma qopqoq 1, bunker, 2 qopqoqni ochish tortqisi, 3 kronshteyn, 4 tayanch stakan, 5 poperechina, 6 vint, 7 sharli tayanch, 8 mayatnik, 9 gayka, 10 stolcha, 11 sirtmoqsimon granula tashlagich, 12 cheklagich tiqin, 13 namlikdan himoyalovchi g'ilof 14 dan tashkil topgan. 1.1-jadvalda «Refleks T-1-50» avtoziqlantirgichining assosiy texnik tavsifi keltirilgan. Jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra, qurilmaning ish unumi 50 kg/soat ni, yuklanadigan ozuqa massasi 50 kg ni, mayatniklar soni 1 donani tashkil etadi. Avtoziqlantirgichning gabarit o'chamlari - uzunligi 1290 mm, kengligi 525 mm va balandligi 840 mm bo'lib, massasi 29 kg ni tashkil etadi. «Refleks T-1-50» avtoziqlantirgichi quyidagicha ishlaydi.



#### 1-rasm. «Refleks T-1-50» avtoziqlantirgichi.

1-qopqoq, 2-bunker, 3-qopqoqni ochish tortqisi, 4-kronshteyn, 5-tayanch stakan, 6-poperechina, 7- vint, 8-sharli tayanch, 9-mayatnik, 10 - gayka, 11-stolcha, 12-sirtmoqsimon granula tashlagich, 13-cheklagich tiqin, 14-namlikdan himoyalovchi g'ilof

Qurilma qopqog'i 1 tortqi 3 yordamida ochilib, bunker 2 ga baliqlarga tarqatiladigan ozuqa solinadi va qopqoq 1 tortqi 3 bilan yana qayta yopib ketiladi [2].

Oziqlantirgich qurilma kronshteyn 4 orqali hovuz chetiga mahkamlangan tayanch stakan 5 ga solingen

holatda o'rnatib qo'yiladi. Oziqlantirgich tubidagi ko'ndalang to'siq 6 dagi vint 7 bilan ozuqaning to'kilish me'yori rostlanadi. Baliqlar oziqlanishga kelib sharli tayanch 8 ning suv ichida turgan mayatnigi 9 ni tebrantiradi. Mayatnik 9 tebranganda stolcha 11 ustida turgan ozuqalar sirtmoqsimon granula tashlagich 12 yordamida turtilib, mayatnik yonlaridan suvga to'kilib tushadi. Mayatnik o'z holatiga qaytganda cheklagich tiqin 13 tirkishni yopib ozuqaning tushishini to'xtatadi. Qurilmadan ozuqa tushishi to'xtashi bilan baliqlar o'zlarida hosil bo'lgan refleks orqali yana mayatnikni turtadi va bunkerdan ozuqani tushiradi. Bu holat ketma-ket tarzda bir necha marta takrorlanadi va baliqlar oziqlanib oladi. Baliqlar oziqlanish paytda jadal harakatlanib, dumi bilan sunvi ham ham sachratib turishadi. Sachragan suv bunker tubiga tegib uning zanglashi va chirib teshilishining oldini olish uchun oziqlantirgich bunkerining pastki qismi namlikdan himoyalovchi g'ilof 14 bilan himoyalangan. Vint, sharli tayanch, mayatnik, stolcha, sirtmoqsimon granula tashlagich, cheklagich tiqindan iborat ozuqa tarqatish mexanizmi qurilma bunkeri ichki qismiga tashqi tomondan gayka 10 orqali bunker tubiga mahkamlangan va zarurat bo'lganda gayka bo'shatilib, mexanizmga texnik xizmat ko'rsatishlar amalga oshiriladi. Qurilmaning afzalligi konstruksiysi sodda bo'lgani holda baliqlarni avtomatik tarzda oziqlantirishni amalga oshiradi [2].

#### «Refleks T-1-50» avtoziqlantirgichining texnik tavsifi

Nº	Ko'rsatkichlar nomlanishi	Ko'rsatkichlar qiymati
1	Ish unumi, kg/soat	50
2	Yuklanadigan ozuqa massasi, kg	50
3	Mayatniklar soni, dona	1
4	Gabarit o'chamlari, mm	-
- uzunligi		1290
- eni		525
-balandligi		840
5	Massa kg	29

**Xulosa** qilib aytish mumkin, Mayatnikli baliqlarni oziqlantirish qurilmasi ammo baliqlarga ozuqa bir joydan to'kilishi hisobiga ko'p hollarda yirik va kuchliroq baliqlar maydalariga nisbatan birinchi oziqlanadi. Undan so'ng esa qolgan baliqlar oziqlanadi. Bu esa ularning bir paytda bir xil oziqlanishini ta'minlamaydi. Bundan tashqari



baliqlar belgilangan me'yordan ham ko'p ozuqani iste'mol qilishadi.  
iste'mol qilish holati ko'p uchraydi. Chunki baliqlar to'ygunicha mayatnikni tebrantirib ozuqani tushirib

Fazliddin QURBONOV,  
ToshDAU dotsenti, t.f.b.f.d (PhD).

#### ADABIYOTLAR

1. Astanakulov K.D. Qurbanov F.Q. Shomirzayev M.Kh. Development of fish feed distributor device. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science 2022. – P. 1076 012032.
2. Фазлидин ҚУРБОНОВ, Фарида ИСАКОВА. АКВАМАДАНИЯТДА БАЛИҚПАРНИ АВТОМАТИК ОЗИҚЛАНТИРИШНИ ҚҮЛЛАШ. AGRO ILM, 2021. 2-ilova (72), 61- 63.

UO'T: 633.15:631

TADQIQOT

## FERMER XO'JALIKLARIDA IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA TIZIMLARINING ISH ISHONCHLILIGI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada fermer xo'jaliklarda irrigasiya va meliorasiya tizimlarining ish ishonchlilikini ta'minlash asosiy masala hisoblanmoqda. Surxondaryo viloyatining Angor tumanigi "Angor Zamin" klasterining xo'jaliklari dagi gidromeliоратив tizimning va uning tarkibiy qismlarining ish ishonchlilikini va buzilishini ballar yordamida tasniflandi. Gidromeliоратив tizimlardan foydalanish sxemasi sug'orish texnikasining ish ishonchlilik vegetatsiya davrida o'r ganildi. Muammolarni yechish bo'yicha tahlillar, ortiqcha resurslarni yo'qotilishiga barham berish bugungi kunning asosiy vazifasidir.

**Kalit so'zlar:** irrigasiya, meliorasiya, ish ishonchlilik, xo'jalik, tizimli tahlil, iqlim sharoitlar, statistika.

**Аннотация.** В данной статье основным вопросом является обеспечение надежности ирригационных и мелиоративных систем в фермерских хозяйствах. С помощью баллов классифицирована эксплуатационная надежность и отказоустойчивость гидромелиоративной системы и ее компонентов в хозяйствах кластера «Ангор Замин» Ангорского района Сурхандарьинской области. Изучена схема использования гидромелиоративных систем, эксплуатационная надежность техники орошения в вегетационный период. Аналитика решения проблем, устранение не-производственного использования ресурсов является сегодня главным приоритетом.

**Ключевые слова:** орошение, мелиорация, надежность работы, экономика, системный анализ, климатические условия, статистика.

**Annotation.** In this article, the main issue is to ensure the reliability of irrigation and melioration systems in farms. The operational reliability and failure of the hydromelioration system and its components in the farms of the «Angor Zamin» cluster of the Angor district of the Surkhandarya region were classified using points. The scheme of using hydromelioration systems, the operational reliability of the irrigation technique was studied during the growing season. Problem-solving analytics, eliminating wasteful resources is today's top priority.

**Key words:** irrigation, melioration, work reliability, economy, systematic analysis, climatic conditions, statistics.

**Kirish.** Irrigatsiya va meliorasiya tizimlarining ish ishonchlilikini oshirishda eng avvalo yerlarni meliorativ tizimlaridan foydalanishni tushunish lozim. Chora-tadbirlarini ishlab chiqish uchun nazariy va dala tajribalari o'tkazildi. Irrigatsiya tizimlari, xo'jalik ichki sug'orish kanallari, temir beton lotoklari, egi-luvchan quvurlar, xovuzlar, tomchilatib sug'orish tizimlaridan iborat.

Suvdan foydalanish rejalarini tatbiq etish sifati asosan gidromeliоратив tizimlarning ish ishonchlilikiga bog'liqdir. Ishonchlik — bu texnikaga va inson tomonidan unga yuklatilgan ish hajmini va ish sifatini mo'ljallangan davr davomida bajarish darajasidir. Ishonchlilik ko'rsatkichlari tizim va ularning tarkibiy qismlari qoniqarli ishlashi va ishga tayyorgarligidir[1].





Ishonchlikni o'lchovi buzilib ishdan chiqish jadalligi. Buzilib ishdan chiqib ketish mo'ljallangan, yuklatilgan ish hajmi chegarasidan chiqish (O'z vaqtida bajarilmaslik yoki loyihalashtirilgan ko'rsatkichlarning buzilishi). Buzilib ishdan chiqib ketishi sabablari 3 ta usul orqali aniqlanadi[5].

Yangi texnika va texnologiyani ishga moslash vaqtidagi o'lchovlar;

Texnika va texnologiya qismlari eskirib ketib ishdan chiqish muddati;

Buzilgan qismlarni qayta qurib takomillashtirish va qaytadan ishga qo'yish;

Har bir buzilish turi bo'yicha statistik ma'lumotlarni yig'ib ular asosan gidromeliorativ tizimning va uning tarkibiy qismlarini ish ishchililagini va buzilishini ballar yordamida tasniflash lozim[3].

Gidromeliorativ tizimlarining ish faoliyati buzilmasdan ishlab turishi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$R = ye^{-\lambda t}$$

Bu yerda: R-tizimning va uning tarkibiy qismlarining ish ishchililigi (buzilmay ishlashning ko'rsatkichi).

$y_e$  - natural logorif asosan 2.1

$\lambda$  - buzilishning jadalligi (yoki buzilishning tez-tez buzilib turishining darajasi)

$t$  - tizimning ish darajasi

$$\lambda=1/T;$$

Bu yerda: T-gidromeliorativ tizimning buzilmasdan ishlash vaqt:  $T=1$

Gidromeliorativ tizimning va uning tarkibiy qismlarining yuqori darajada ish ishchililigini (yoki buzilmasdan ishlab turishi) quyidagi chora-tadbirlar orqali amalga oshirilishi mumkin[2]:

Doimiy va himoya ta'mirlash, ayrim qismlarning o'z vaqtida almashtirish (yoki qayta qurish, takomillashtirish, kapital ta'mirlash) yuza gidromeliorativ tizimlarda va uning tarkibiy qismlarida faqat oldin puxta ishlab chiqilgan konstruksiyalar orqali foydalanish lozim.

– Gidromeliorativ tizimlarning ish ishchililigi oshirish maqsadida mutaxassislar maxsus guruh tashkil etishi lozim. Bu guruhning ish vazifasi quyi-dagilardan iborat bo'ladi:

– Gidromeliorativ tizimlarning va qismlarning ish ishchililigini tahlil qilish, ularning qachon buzilish mumkinligi aniqlash, buzilishlarning

sababini o'rganish;

– Ish ishchililigi o'lchov qiymatlarini aniqlash hamma qismlarini standartizatsiya va kompleksiya etish, zaxira vosita jihozlarini tayyorlab quyish;

– Gidromeliorativ tizimini va uning qismlarini sinovdan o'tkazish, ish ishchililigining darajasi va o'zgaruvchanligini matematik formulasini ishlab chiqish;

– Buzilishlarning jadalligini tuzish;

**Tadqiqot materiallari va uslubi.** Yuqorida dolzarb vazifalardan kelib chiqib, Termiz muhandislik-texnologiya institutida «Global iqlim o'zgarishi sharoitida g'o'zani tomchilatib sug'orish tartibi va texnologiyalarini ishlab chiqish» mavzusidagi amaliy loyihasi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari Surxondaryo viloyatining Angor tumanida olib borilmoqda. Tajriba dalasida sizot suvlari sathi 1,8 metrda joylashgan o'tloqi bo'z bo'lib, tadqiqotlar egatlab va tomchilatib sug'orish fonlarida ikki xil ma'dan o'g'itlar me'yorlari va muddatlarida olib borildi. Tajribalar Sulton va Buxoro-102 g'o'za navlarining har birida 8 ta variantdan iborat bo'lib, 3 tadan takrorlanishda joylashtirildi. Har bir delyanka 8 qatordan iborat bo'lib, qator oralig'i 60 sm ni tashkil etadi.

**Tahlil va natijalar.** 2022-2023 yillarda Sulton g'o'za navi egatlab sug'orish texnologiyasida ChDNSga nisbatan 65-75-70 % sug'orisholdi tuproq namligida 1-4-1 tizimda jami 6 marta sug'orilib, 2-4 chinborg davrida sug'orishga zaruriyat yuzaga kelmadi, chunki bu fazada namlik 65 % ga tushmadni. Shonalash fazasida 1 marta 911,4 m<sup>3</sup>/ga me'yorda, gullash-hosil to'plash fazasida 995,2-1010 m<sup>3</sup>/ga me'yorda 4 marotaba, pishish fazasida 850 m<sup>3</sup>/ga me'yorda 1 marta sug'orilib, mavsumiy sug'orish me'yor 5310,6 m<sup>3</sup>/ga ni, sug'orish davomiyligi 16-21 soatni, sug'orishlar orasi 21-24 kunni tashkil etdi. Tomchilatib sug'orish texnologiyasida esa ChDNSga nisbatan 65-75-70 % sug'orisholdi tuproq namligida 2-5-2 tizimda jami 9 marta sug'orilib, 2-4 chinborg davrida 2 marta 262,5 m<sup>3</sup>/ga me'yorda, shonalash fazasida 1 marta 325-337,5 m<sup>3</sup>/ga me'yorda, gullash-hosil to'plash fazasida 337,5-350 m<sup>3</sup>/ga me'yorlarda 5 marotaba, pishish fazasida 252,5-225 m<sup>3</sup>/ga me'yorda



2 marta sug'orilib, mavsumiy sug'orish me'yori 3287,5 m<sup>3</sup>/ga ni, sug'orish davomiyligi 6,5-10 soatni, sug'orishlar orasi 9-13 kunni tashkil etdi. Tomchilatib sug'orish texnologiyasida esa 2-4-2 tizimda jami 8 marta sug'orilib, 2-4 chinborg davrida 1 marta 196,6 m<sup>3</sup>/ga me'yorda, shonalash fazasida 1 marta 258,3 m<sup>3</sup>/ga me'yorda, gullah-hosil to'plash fazasida 265,3-278,7 m<sup>3</sup>/ga me'yordarda 4 marotaba, pishish fazasida 239,8-242,6 m<sup>3</sup>/ga me'yorda 2 marta sug'orilib, mavsumiy sug'orish me'yori 2026 m<sup>3</sup>/ga ni, sug'orish davomiyligi 8-12 soatni, sug'orishlar orasi 12-17 kunni tashkil etdi.

Surxondaryo viloyatining o'tloqi bo'z tuproqlari sharoitida turli sug'orish texnologiyalarida g'o'zani an'anaviy va suvda eruvchan o'g'itlar bilan oziqlantirish orqali o'simlikning o'g'itdan foydalanish samaradorligi xalqaro qabul qilin-gan PFP (Partial factor productivity) ko'rsatkichi bo'yicha aniqlandi [3].

**Xulosa.** Sug'orish texnologiyalari bo'yicha shunday xulosa qilish mumkinki, egatlаб sug'orishga nisbatan tomchilatib sug'orish texnologiyasida nafaqat suv va resurslarni te-jash mumkin, balki, yoqilg'i moylash va mehnat xarajatlarini ham tejashga erishilib, pirovardida yuqori va sifatli paxta hosili yetishtirilishi evaziga iqtisodiy samaradorlikning oshishiga ham erishiganligini alohida ta'kidlash lozim. Ish ishonchliligi nazariy nizomlari quyidagicha:

$$R_s = R_1 \cdot R_2 \cdot R_3 \cdots R_{n/t}$$

Bu yerda: n-elementlar soni; R-bir qismining ish ishonchliligi ko'rsatkichi (ball); R-butun tizimning ish ishonchlili darajasi (ball).

Formuladagi elementlar soni ko'paysa, tizimning ish ishonchliligi pasayadi: elementlar soni kamaysa, ish ishonchliligi darajasi ko'payadi.

Zaxira (rezerv) qismlarini ishga kiritilgan holda tizimning ish ishonchliligi quyidagicha ko'rsatiladi[5].

$$R_s = (1 - (1 - R_i)^m)^n$$

(m-1)- zaxira soni.

Gidromeliorativ tizimini takomillashtirish (S) va uning ish ishonchliligi (R)ni oshirish uchun kerakli kapital mablag'i (S)

$$S_1 = S \frac{1 - R}{R} \cdot \frac{R}{1 - R_1}$$

R=0,85 va R<sub>1</sub>=0,9 ga teng holda: S<sub>1</sub>=1,58 S. Bu degani GM tizimning ish ishonchliligi 0,85 dan 0,9 gacha ko'paytirish uchun qo'shimcha kapital mablag'ni 1,58 baravar oshirish lozim.

Gidromeliorativ tizimlardan foydalanish sxemasi sug'orish texnikasining ish ishonchliligi vegetatsiya davrida o'rganiladi. Bu ishni amalga oshirish uchun hududlarda tajriba dalalari va sinov gidromeliorativ tizimlari tanlanadi. O'sha joylarda ilmiy tajriba ishlar olib boriladi va har bir qismining ish ishonchliligi aniqlanadi.

**Abduqodir BUTAYAROV,**  
texnika fanlari falsafa doktori (PhD) dotsent,  
Termiz muhandislik-texnologiya instituti.

## ADABIYOTLAR

1. Butayarov A.T. Amu-Surxon irrigatsiya tizim havza boshqarmasida suvdan foydalanish holati. Mejdunarodnaya konferensiya innovationnoe razvitie nauki i obrazovaniya. Noyabr 2020 g. «Sbornik nauchníx trudov Pavlodar, Kazaxstan» Noyabr, 2020 g. -St. 132-139.
2. Isaeva A.A. Spravochnik ekologiya o - klimaticheskix harakteristik. g. Moskva.. MGU, 2005. -412 s.
3. Butayarov A.T. «Amu-Surxon» ITBH hududidagi fermer xo'jaliklarida suvdan foydalanishni takomillashtirish. // "AGRO ILM" journali maxsus son 4.(60). -Toshkent, 2019. -B. 79 - 81.
4. Sabirjan Isaev, Gulom Bekmirzaev, Mirkadir Usmanov, Elyor Malikov, Sunnat Tadjiev, Abdukadir Butayarov. Provision of remote methods for estimating soil salinity on meliorated lands. E3S Web of Conferences 376, 02014 (2023). <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202337602014>. ERSME-2023
5. Bakir Serikbaev, Abdukadir Butayarov, Sardor Gulamov, Sanobar Dustnazarova. Inflation of water to the soil in the fields of drop irrigation. E3S Web of Conferences 264, 04002 (2021). <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202126404002>. CONMECHYDRO – 2021.
6. Butayarov A.T., Nazarov A. A. Scientific substantiation of technology of efficient use of water resources in irrigation of cotton. E3S Web of Conferences 401, 05048 (2023). <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202340105048>. CONMECHYDRO – 2023.



# УРУҒЛИ АРАЛАШМА ЙИГИШТИРАДИГАН МАШИНАДА ҚАЙТАРГИЧНИНГ ЎРНАТИЛИШ БУРЧАГИ ИШ КЎРСАТКИЧЛАРИГА ТАЪСИРИНИ ЎРГАНИШ

**Аннотация.** Чўл-яйлов озуқабоп ўсимликлари уруғли аралашмасини йигишиширадиган машина сепаратори параметрларини асослаша аралашманни қайтаргичдан қайтиб сепаратор юзасига ёйлиб текис тақсимланиб тушишини таъминлашда қайтаргични тўғри ўрнатилиши таъминлаши зарур. Қайтаргичнинг ўрнатилиши бурчагининг йигишиширилган уруғли аралашма таркибидаги уругларнинг механик шикастланиши ва аралашма таркибидаги уруғ микдорига таъсирини ўрганилди.

**Аннотация.** При обосновании параметров сепаратора машины, собирающей семенную воронку пустынно-пастбищных кормовых растений, необходимо обеспечить равномерное распределение ворохов из отражателя на поверхность сепаратора, а также обеспечить правильная установка отражателя. Изучено влияние угла установки отражателя на механическое повреждение семян в собранной семенной воронке и количество семян в ворохах.

**Annotation.** When justifying the separator parameters of a machine collecting seed pile of desert-pasture forage plants, it is necessary to ensure uniform distribution of the pile from the reflector to the separator surface, as well as to ensure the correct installation of the reflector. The influence of the angle of installation of the reflector on the mechanical damage of seeds in the collected seed pile and the number of seeds in the pile was studied.

**Кириш.** Республикаиз чўл яйловлари 21 млн гектардан ортиқ бўлиб, шундан 40% дан кўпроғи инқирозга учраганлиги эътироф этилган. Қорақўлчилик яйловлари учун ажратилган майдон 17,5 млн га бўлиб, ҳозирги кунда “Ўзбеккоракўли” компаниясига қарашли ширкат хўжаликлари тасарруфидаги яйловлар майдони 8 млн. га дан ортиқроқ.

Яйловлар мамлакатимиз чўл чорвачилигининг асосий озуқа манбаи бўлиб, улардан йил бўйи фойдаланиш имконияти мавжуд. Яйлов озуқаси энг арzon озуқа манбаи ҳисобланади. Лекин, қорақўлчилик яйловларининг ҳозирги ҳолати соҳани барқарор ривожлантириш тала-бига жавоб бермай келмоқда.

Чўл яйлов озуқабоп ўсимликлари уруғини йигишишишнинг ресурстежамкор технологиялари ва уларни амалга оширадиган техника воситаларининг янги илмий-техникавий асосларини ишлаб чиқишга йўналтирилган илмий тадқиқот ишлари олиб борилмоқда.

Ўрганилганлик даражаси. Чўл яйлов озуқабоп ўсимликлари уруғли аралашмасини йигишиширадиган машина ҳамда қурилмаларни ишлаб чиқиш ва параметрларини асослаш бўйича М. Скоттон, Л. Пиччинин, М. Дайнезе, Ф. Санчин, М. Скоттон, Д. Андреатта, М.Абдуллаев,

Ш.Урдиев, О.Шавазов , томонидан илмий тадқиқотлар олиб борилган.

Аммо мазкур тадқиқотларда чўл озуқабоп ўсимликлари уруғини йигишишишда агротехник талабларига тўлиқ жавоб берадиган машина ишлаб чиқиш ва унинг ишчи қисмларини кам энергия сарфлаган ҳолда юқори иш сифатини таъминловчи параметрларини асослаш масалалари етарли даражада ўрганилмаган.

Таҳлил ва натижалар. Чўл озуқабоп ўсимликлари уруғли аралашмасини йигишиширадиган машинасига йирик пояслардан ажратадиган актив сепаратори ишлаб чиқилди.

Чўл озуқабоп ўсимликлари уруғли аралашмасини йигишишиш машинаси сепараторининг йирик пояслардан ажратиш технологик жараёни бажарилишининг сифат кўрсаткичларини баҳолашга дастлабки талаблар ва машина конструкциясини лойиҳалашга техник топширик ишлаб чиқилди.

Чўл-яйлов озуқабоп ўсимликлари уруғли аралашмасини йигишиширадиган машина Фориш туманидаги “BMKB-Agromash” ОАЖнинг тажриба участкасида ва “Ахмедов Мансур” фермер хўжалиги далаларида синовдан ўтказилди.

Машина технологик жараёни бўйича сепараторда уруғли аралашманни ўрилган массадан



түлиқ ажралишини таъминлаш керак бўлади. Шу мақсадда, бункерни тепа ички қисмига сепаратор юқорисига вертикаль ўққа нисбатан маълум бурчак остида қайтаргич ўрнатилади. Қайтаргич дефлектордан маълум тезлиқда чиқаётган йирик пояли уруғли массанинг ҳаракат йўналишини ўзgartиради ва уруғли майда аралашмани ажратиш учун сепаратор юзасига ёйиб узатиб беради.

Сепаратор юзасидан тўлиқ фойдаланиш учун қайтаргич тикка нисбатан  $10^\circ, 20^\circ, 30^\circ, 40^\circ$  бурчак остида ўрнатилиб тажрибалар ўтказилди. Бунда машина бункерида йигилган уруғли аралашма таркибидаги уруғлар нисбати ва уруғларнинг механик шикастланиши ўрганилди. Олинган тажриба натижалари 1- жадвал ва 1-расмда келтирилган. Демак, қайтаргични тикка нисбатан ўрнатилиш бурчаги  $10^\circ$  дан  $20^\circ$  га ортганида бункерда йигилган аралашма таркибидаги уруғлар миқдори 28 фоиздан 31 фоизгача, кўрсатилган бурчак  $20^\circ$  дан  $40^\circ$  гача ортгандага эса 31 фоиздан 21 фоизгача камаяди.

1-жадвал.

#### **Қайтаргични тик ўққа нисбатан ўрнатилиш бурчагининг машина иш кўрсаткичларига таъсирини ўрганиш бўйича ўтказилган тажрибалар натижалари**

Мезонлар	Ўрнатилиш бурчаклари, $^\circ$			
	10	20	30	40
Уруғларнинг механик шикастланиши, %	15	12	4	2
Аралашма таркибидаги уруғлар миқдори, %	28	31	27	21


Қайтаргичнинг тикка нисбатан ўрнатилиш бурчагини  $10^\circ$  дан бошлаб  $40^\circ$  гача ошиши уруғларнинг мөханик шикастланишини 15 фоиздан 2 фоизгача камайишига олиб келган.

Уруғларнинг механик шикастланиши ва аралашма таркибидаги уруғ миқдорини қайтаргичнинг ўрнатилиш бурчагига нисбатан

ўзгаришини қуйидаги эмпирик ифодалар билан ифодалаш мумкин:

$$Y_1 = 0,015\alpha^2 - 1,07\alpha + 25; \quad (1)$$

$$Y_2 = -0,022\alpha^2 + 0,875\alpha + 21,75. \quad (2)$$



**1-расм. Уруғларнинг механик шикастланишини ( $Y_1$ ) ва аралашма таркибидаги уруғ миқдорини ( $Y_2$ ) қайтаргичнинг ўрнатилиш бурчагига боғлиқ равиша ўзгариш графиклари.**

Курилган графиклар ва эмпирик ифодалар таҳлили, уруғларнинг механик шикастланишини ва аралашма таркибидаги уруғ миқдорини қайтаргичнинг ўрнатилиш бурчагига боғлиқ равиша мос ҳолда қавариқ ва ботик парабола қонуниятлари бўйича ўзгаришини кўрсатади.

**Хулоса.** Олинган тажриба натижаларидан кўриниб турибдики, қайтаргични тикка нисбатан ўрнатилиш бурчагининг  $20^\circ$  дан катта кийматларида сепараторнинг ишчи юзасидан тўлиқ фойдаланмайди, яъни қайтаргичдан қайтаргич пояли аралашма учинчи ва тўртингчи барабанларга келиб тушади. Натижада, уруғли аралашманинг поядан тўлиқ ажралишига имкон яратилмайди. Қайтаргич тикка нисбатан  $10-20^\circ$  бурчак остида ўрнатилганда талаб дарражасида уруғли аралашма олиш мумкинлиги аниқланди.

**Бахтиёр ТЎЛАГАНОВ,**  
“ТИҚҲММИ” МТУ.

#### **АДАБИЁТЛАР**

1. Тўллаганов Б.Қ. Чўп озуқабоп ўсимликлари уруғли аралашмасини йиғувчи машина// Ўзбекистон кишлоқ ва сув хуҷалиги журнали Тошкент. 2020 №8
2. Тўллаганов Б.Қ. Чўл-яйлов озуқабоп ўсимликлари уруғли аралашмасини йиғиширирадиган машина сепаратори параметларини асослаш. Автореф. дис. - PhD., - Тошкент, 2023.



# O'ZBEKİSTONDAGI BİRİNCHİ İSSIQXONA



**Dehqon bozorlarini, zamonaviy do'konlarni aylangan paytlarda el dasturxoniga qishin-yozin yetkazib berilayotgan sarxil meva-sabzavotlarga ko'zim tushganda "Ilgari ham shunday bo'lganmikan? Qachondan boshlab issiqxonalar tashkil etila boshlagan ekan" degan savollar ko'nglimdan kechadi.**

**Yaqinda shu kabi fikrlarim bilan jurnalimizning faxriysi, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi Mahmudxon aka Toirov bilan o'rtoqlashar ekanman, uning otasi Abdulhaq TOIROV O'zbekistonda issiqxonalarning ilk tamal toshini qo'yganlardan biri ekanligini bilib oldim. Men bunday vaziyatdan unumli foydalanish maqsadida Mahmudxon akani yana savolga tutdim:**

## 1

### Otangiz haqida qisqacha aytib bersangiz...

— Otamiz Abdulhaq Toirov 1914-yilning 25-yanvarida tug'ilgan. Mehnat faoliyatini 16 yoshlarida avval oddiy kolxzochi, so'ngra jamoa xo'jaligida tabelchi va xo'jalik mudiri vazifalarida boshlagan. Jamoa xo'jaligi rahbarlarining tavsiyasi bilan 1935-yil sentyabrida Toshkent hisob-buxgalteriya bilim yurtiga kirib, ikki yildan keyin uni muvaffaqiyatli tugatgan. Vaqt kelib, Nizomiy nomidagi pedagogika institutining fizika-matematika fakultetiga o'qishga kiradi va bir paytning o'zida o'rta maktabda dars ham beradi... 1942-yilning avgustida otamiz Qorasuv (hozirgi Zangiota) tumanidagi "XVIII parts'yezd" jamoa xo'jaligi boshqa-ruvi kotibi bo'lib ishlay boshlaydi. O'zining

mehnatsevarligi, tashkilotchiligi, odamlarga g'amxo'rligi, kamtarligi tufayli el e'tiborini qozongani uchun, 29 yoshli otamiz, ushbu jamoa xo'jaligi raisi etib, 1943-yilda esa shu tumandagi M.Gorkiy nomidagi jamoa xo'jaligiga rais etib saylanadi. Ular rahbarlik qilgan yetti yil davomida bu xo'jalik barqaror rivojlanadi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish rejalarini muttasil bajarib kelinadi, ijtimoiy-madaniy qurilishlar amalga oshirilib, odamlar hayoti birmuncha yaxshilanadi... Ishda ijobjiy natijalarga erishgan otamiz keyinchalik, tuman qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i lavozimiga tayinlanadi, 1952-yilda esa, Bo'ka tuman ijroiya qo'mitasi raisi etib saylanadi...

## 2

### — Otangizning yana qaysi fazilatlari haqida to'xtashni istar edingiz?

— Otamiz juda saxiy inson edilar. Qarindosh-urug'lardan kimdir moliyaviy qiyinchilikka duch kelsa, unga, albatta, beminnat yordamga kelardilar. Otamiz bundan afsuslanmas, balki o'mni kelganda saxiyliklaridan ko'ngillari to'imay, "Odamlarga qo'lim bilan ko'p bera olmadim, lekin yo'lim bilan ko'p bergenman" derdi. Otamiz mehnat faoliyatlari davomida Bo'ka va Oktyabr (Chinoz va Yangiyo'l tumanlari o'tasidagi hududda joylashgan) tumanlari ijroqo'mi raisi, Chinoz tumani partiya qo'mitasi kotibi, Qo'yliq posyolka kengashining raisi, yirik davlat xo'jaligi — "Partiya XXI s'yezdi" direktori vazifalarida samarali ishlaganlar.

"Partiya XXI s'yezdi" sovxoziiga direktor bo'lib ishlagan paytlari u kishiga mashhur qishloq xo'jalik darg'alari Qirg'izboy ota Abdusaliyev, Rahim Dadaxo'jayev, Mizrop Kamolov, G'ofurjon Odilov, u paytda hali yosh brigadir, keyinchalik tuman rahbari, Mehnat Qahramoni bo'lgan Rahmatilla Qambarov, Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti ilmiy-tadqiqot instituti xodimi, iqtisodiyot fanlari nomzodi – shogirdlari Dadaxon Zokirxo'jayev va boshqalar yaqindan yordam berishar edi...

E'tiborlisi, taqdir otamizning dam qoloq xo'jaliklarni ko'tarishda sinasa, dam yangisini tashkil etishga yo'llagan. 1966-yilning oxirlarida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida yangilik bo'lgan Qo'yliq issiqxonalar kombinatiga asos solingan va otamiz sobiq Kalinin (hozirgi Zangiota) tumani rahbarlari tomonidan issiqxonaning birinchi direktori etib tayinlangan. Uni ishga tushirish, faoliyatini yo'lga qo'yish uchun otamiz ko'p kuch sarfladi, mutaxassislarini izlab topdi, ishchilar jamoasini shakllantirish bilan shug'ullandi. Mazkur issiqxona bugungi kunda yirik xo'jalikka aylanib, Mehriddin Ahmedov rahbarligida samarali faoliyat ko'rsatib, aholi dasturxoniga tegishli qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetkazib bermoqda...



## 3

### — Bugungi kunda mamlakatimizda issiqxonalar rivojiga e'tibor qanday?

— Ushbu masalaga davlatimiz rahbariyati tomonidan alohida e'tibor qaratib kelinmoqda desam, albatta, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki issiqxonalarni yanada rivojlantirishga qaratilgan tegishli qarorlar qabul qilingan bo'lib, ularning bajarilishi jiddiy nazoratga olingan. Meva-sabzavot yetishtiruvchilar milliy Assosiatsiyasi ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda O'zbekistonda 5,2 ming hektar maydonda 6 mingdan ortiq issiqxona faoliyat yuritib, 600 million dollarlik mahsulot ishlab chiqarilmoxqa, shu jumladan, 300 million dollar eksport daromadi shuning hisobidan kelmoqda. Sanoatda 35 mingdan ortiq kishi ishlaydi.

Otamiz hayot bo'lganida 110 yoshni qarshigan bo'lar edi. Joylari jannatda, oxiratlari obod bo'lsin.

— Tilagingizga to'liq qo'shilgan holda mazmunli va qiziqarli suhbatingiz uchun minnatdorchilik bildiramiz...

**Ulug'bek MAMAJONOV,**  
o'z muxbirimiz.

# Otamning hovlisi – yuragimda qondek ardogli...



O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, shoir va tarjimon G'ulom MIRZO 1964-yil 4-yanvarda Qashqadaryo viloyati Qarshi tumanidagi Xushvaqt qishlog'da tug'ilgan. 1981-1989-yillarda Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) o'zbek filologiyasi fakultetida, 1996-1997-yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida tahsil olgan.

Uning "Oyparast dil" va "Taayyun raqamlari", "Otamning bog'i", "Qalb tomchilari", "Oftobga qaytaman", "Unutilgan hur", "Yaxshiyam siz borsiz" she'riy kitoblari, shuningdek, "Ey, darvesh" qissasi hamda o'ndan ortiq publisistik va tarjima asarlari chop etilgan.

Tavallud topganiga 60 yil to'lishi munosabati bilan jurnalimiz tahririyati nomidan G'ulom Mirzoni tabriklar ekanmiz, quyida shoirning she'rlaridan namunalar keltirmoqdamiz.

## DARAXT

Ozroq yelsa shabada,  
Zikrлari behisob.

Xivchinu shox-shabbada  
Shitirlari behisob.

Yomg'ir yuvsu mabodo,  
Huzurlari behisob.  
Novdalarin duoga

Cho'zurlari behisob.  
Yaproqdek bir qalbimda  
Shukronam qancha, bilmam.  
Lek yuzlab yurak – bargda  
Shukurlari behisob.

## SOG'INCH CHIZGILARI

Qichqiradi xo'rroz hovlida,  
zar yog'adi kuz quyoshidan.  
Qo'llarida kosov, voldam,  
kuymalanar o'choq boshida.

Sog'ingandan sarg'ayibdi bog',  
ilinjlarni ichar jo'yaklar.  
Daraxtlarda har yalong'och shox -  
hijron g'ajib ketgan suyaklar.

Ko'zyoshlarin ko'rdim uzumning,  
Ayrliqdan bag'ri xun – anor.  
Mezonlarga osdim o'zimni,  
suzib ketdi men osilgan dor...

Xayriyatki, mumkin suyunmoq,  
yig'lashga bor imkonlarim-da.  
Ota makon, o'h, ona tuproq,  
qoldirmagil hijronlaringda...

## YURT BAHORI

Manzara ustasi rassom-tabiat  
Bo'yoq sandiqchasin ochmasdan hali,  
Nikoh tunidagi kelinchak sifat  
Oq kiydi tezpishar to'p-to'p zardoli.

Bo'rdoqi-bo'rdoqi bulutlar keldi  
Qarshining dashtday keng osmonlariga.  
Qishloqlar, o'tloqlar, ovloqlar to'ldi  
Kislорodning manfiy ionlariga.

Devor oshayotgan "o'g'ri" bolaning  
Qo'ynidan dovuchchalar to'kilganiday,  
Tomchilar shovqini ko'mib olamni,  
Jigarrang zaminga to'kildi tinmay.

Yog'magan qorlardan yomg'ir yaxshiroq,  
Har qalay bir qadar qonar dala-tuz.  
Ertaga gurkirab chiqar ismalоq,  
Chiqadi qoqigul, qushyoqo, yalpiz.

Ertaga kengliklar qizdek yasanib,  
Quyosh oshiq bo'lib ko'kda balqigay.  
Erta yoqmay qolar qushlarga janub,  
Qushlar qaytib kelar yana sharqiga.

Jannatni rad etib yashagan ochun  
Ertaga baribir uni ko'rajak.  
O, agar Qarshidan ketmasam bugun,  
Ertaga quvonchdan yorilsam kerak.



G'ulom MIRZO.

# O'ZBEKISTON QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI

agrар-iqtisodiy,  
ilmiy-ommabop jurnal

## СЕЛЬСКОЕ И ВОДНОЕ ХОЗЯЙСТВО УЗБЕКИСТАНА

аграрно-экономический,  
научно-популярный журнал

### Muassislar:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
QISHLOQ XO'JALIGI VA SUV XO'JALIGI  
VAZIRLIKHLARI

### Bosh muharrir:

Tohir DOLIYEV

### Tahrir hay'ati:

Ibrohim ABDURAHMONOV

Shavkat XAMRAYEV

Azimjon NAZAROV

Bahodir TOJIYEV

Ravshan MAMUTOV

Abrol VAXOBOV

Bahrom NORQOBILOV

Nizomiddin BAKIROV

Shuhrat TESHAYEV

Bahodir MIRZAYEV

Ravshanbek SIDDIQOV

Mirziyod MIRSAIDOV

Baxtiyor KARIMOV

Ibrohim ERGASHEV

2024-yil, yanvar №1.

Jurnal 1906-yil yanvardan  
chiqa boshlagan.

Obuna indeksi 895

Jurnaldan materiallar ko'chirib  
olinganda "O'zbekiston qishloq  
va suv xo'jaligi" jurnalidan  
olindi, deb ko'rsatilishi shart.

## MUNDARIJA

O'zbekiston xalqiga Yangi yil tabrige .....	1
M.TOIROV. G'o'za bilan tillashgan olim .....	2
A.TOIROV. Genetika ilmi darg'asi .....	4
Kamolot pillapoyasi .....	7
E.ABDUALIMOV. Qishloq xo'jaligiga oid atamalarning izohli lug'ati .....	16
U.MAMAJONOV. Xorazmning izlanuvchan dehqoni edi .....	18
M.TOSHBOLTAYEV. Nosoz mashinalarni ta'mirga tayyorlash .....	20
A.QORJOVOV. Bir tonnasi 304 750 000 so'm .....	22
D.YORMATובה. Endi qanday ekinga e'tibor beraniz? .....	24
B.RAXMATOV. Ko'rsatkich va natijalar e'tirofga loyiq .....	27
X.KARIMOV. Arslon izidan qaytmas.. ....	28
SH.NORMURODOV. Modernizatsiya – tejamkorlik omili .....	29
"Zarbdor yil"likning zavorli vazifasi .....	32
Bugungi amal – kelgusi hosilga tamal .....	33
Veterinarlar chorvadolar xizmatida .....	34
Qorako Ichilikda klaster tizimi .....	35
Naslli chorva – baraka manbai .....	36
Zomin ilmiy-tajriba stansiyasi tashkil etiladi .....	37
A.NURMATOV, H.G'IYOSOV, A.XOLMATOV. Embriyonlarni ko'chirib o'tkazish texnologiyasi joriy etilmoqda .....	38
D.ДЕДЕАЕВ, К.АЗИЗОВ. Влияние посевного качества семян на урожайность кукурузы .....	40
A.КАМАЛОВ, Т.ХАМИДУЛЛАЕВ, С.ЗОКИРОВ. Кузги бүгдой ўсимлиги кўчат калинлигининг ҳосилдорликка таъсири .....	42
B.JOLLIBEKOV, B.TAJIMURATOV, S.GENJEBAEVA. Qumli cho'l tuproqlarda atmosfera namligi (yog'ingarchilik) ta'sirida arpa hosildorligi .....	44
Ю.ХОДЖАМКУЛОВА. Орошение сортов риса ( <i>Oryza sativa</i> ), нормы расхода воды в период роста и развития растений .....	47
З.ХАФИЗОВА. Задачи землеустройства в развитии садоводства .....	49
Ш.ЖАББОРОВ. Вино саноати иккиласми маҳсулотларидан фойдаланган холда, корабайир зотли отларнинг ўсиш ва ривожланишига биологик фаол кўшмичаларнинг таъсири .....	51
F.QURBONOV. Tovar baliqlarini yetishtirishda mayatnikli oziqlantirgichni qo'llash afzalliklari .....	54
A.BUTAYAROV. Fermer xo'jaliklarida irrigatsiya va melioratsiya tizimlarining ish ishonchliligi .....	56
Б.ТЎЛАГАНОВ. Ургули аралашма йигиштирадиган машинада кайтаргичнинг ўрнатилиш бурчаги иш кўрсаткичларига таъсирини ўрганиш .....	59
U.MAMAJONOV. O'zbekistondagi birinchi issiqxonasi .....	61
G.MIRZO. Otamning hovlisi — yuragimda qondek ardoqli... ....	63

Jurnal O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2019-yil 10-yanvarda 0158-raqam bilan qayta ro'yxata olingan.

Manzilimiz: 100004, Toshkent sh., Shayxontohur t., A.Navoiy k., 44-uy.

Tel.: +998 71 242-13-54,  
+998 71 249-13-54.

Veb sayt: qxjurnal.uz  
E-mail: qxjurnal@mail.ru  
Telegram: qxjurnal\_uz  
Facebook: qxjurnal

© «O'zbekiston qishloq  
va suv xo'jaligi»

Bosmaxonaga topshirildi: 2024-yil 2-yanvar. Qog'oz bichimi 70x100 1/16. Ofset usulida ofset qog'oziga chop etildi. Sharli bosma tabog'i – 5,5. Nashr bosma tabog'i – 1,31. Buyurtma № 1 Nusxasi 1100 dona.

«HIOL MEDIA» MCHJ  
matbaa bo'limida chop etildi.  
Korxona manzili: Toshkent shahri,  
Uchtepa tumani, Sharaf va To'qimachi  
ko'chalarli kesishuv.

Navbatchi muharrirlar –  
A.TAIROV, B.ESANOV  
Dizayner – U.MAMAJONOV

# S SIPMA

профессиональная кормозаготовительная техника



Тюковый пресс-подборщик



Рулонный пресс-подборщик



Обмотчик рулонон



Косилка дисковая



Грабли



Саморазгрузочная тележка



Разбрасыватель органических удобрений



Измельчитель рулонон

**TAM**  
TYTAN AGRO MASH

г. Ташкент, ул. 8 марта, д. 57 (ориентиры: Сарыкулька, Зеленый базар, Топчан гостиница)

+ 998 93 555-00-95

+ 998 99 987-20-50



**«SARDOR AVTO INVEST» DM jamoasi**

**Xalqimizni Yangi yil bilan muborakbod etadi va sizga dunyodagi eng sifatli mashinalarni taklif etadi.**

## Mercedes-Benz Uzbekistonda

«SARDOR AVTO INVEST» DM  
Toshkentdag'i rasmiy diler | Tel.: 78 150 13 60



[www.mercedes-tashkent.uz](http://www.mercedes-tashkent.uz)



**CHANGAN LABO va KAMA BIZNES  
PUL TOPAR MASHINALAR**



**“SARDOR AVTO INVEST” TOSHKENTDAGI RASMIY DILER**

**Tel: (78) 148 09 11, (90) 806-46-67**

[www.sardor-avto.uz](http://www.sardor-avto.uz)

MAHSULOT SERTIFIKATLANGAN